Pre-activity	<p>-to get students to think about the topic</p> <p>-to show them two pictures and ask them to tell the difference the two</p>	<p>-discussion of the pictures</p> <p>-practicing the pronunciations of new words from the text.</p> <p>-referring to transcription</p> <p>-introducing the new vocabulary words</p>	40 min.	group work	<p>Think-Pair-ShareWith students seated in teams of 4, have them number them from 1 to 4. Announce a discussion topic or problem to solve.</p> <p>(Example: What are the SP of the given texts? How could we define them?)</p> <p>Give students at least 10 seconds of think time to think of their own answer.</p> <p>Using student numbers, announce discussion partners.</p> <p>(Example: For this discussion, Student #1 and #2 will be partners. At the same time, Student #3 and #4 will talk over their ideas.)Ask students to PAIR with their partner to discuss the topic or solution.</p> <p>Finally, randomly call on a few</p>	<p>- Book: Listening Extra</p> <p>-black board</p> <p>-posting the pictures on the board</p>
--------------	--	--	---------	------------	---	--

					students to SHARE their ideas with the class	
While-activity	-to introduce the topic	-read, translate and analyze the text -working on the exercises: translating the following sentences; fill in the blanks with suitable words; matching the definition; -working on the vocabulary notes	80 min.	-group work -pair work -individual work		-handouts -black board - dictionaries
Post-activity	-to sum up the topic -to give a brief statement of the topic	-answering the questions -to have a discussion about stylistic problems -characterize the situation -give an example to show how man is affecting the ecology	40 min.	group work		-handouts -black boar

THE TECHNOLOGY OF THE MODULE 6

Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan. Bir kiyik bor ekan. U kiyikning tog' kamarida uyasi bor ekan. Uyasining yonida bir terak bor ekan. Bir odam kelib shu terakka kadi osib qo'yibdi. Kadi shamoldan kunin taraqlab, tunin taraqlab turar ekan. Kadi osilgan kundan boshlab kiyik uyasidan chiqqa olmay qolibdi. Kiyik har kuni asta uyasining og'ziga kelib qarab, yana kadining taraqlaganini eshitib, «Mergan bo'lsa kerak» deb qo'rqib, uyning to'riga qochib kirib ketar ekai. Shunday qilib kiyik hafta — o'n kungacha chiqqa olmay, ochlikdan holi ketib.³⁴

«Kel-e, ochdan o'lguncha mergan o'tsa ham yorug' dunyoni ko'rib o'lay» deb, asta uyasining og'zidan chiqib qarasa, shamoldan daraxtga urilib to'q-to'q etib turgan kadi ekan. «Ey, bu kadi ko'pdan beri ishimni qildi-ku. Buni terakning boshidan olib tushib bilganimni qilay» deb terak boshiga chiqib kadini olib tushibdi. Kadini quyrug'iga bog'lab, joni boricha chopib tog'u toshlarga urib taraqlatibdi. Oxiri o'zi charchab: «Endi seni bir bo'ldiqlatay» deb kadini quyrug'iga mahkam bog'lab, buloq yoniga kelib sekin buloqqa solibdi. Kadining ichiga suv to'lib, kiyikni suv tagiga torta boshlabdi. Kiyik yuqoriga tortibdi. Kiyikning quyrug'i shartta uzilib ketibdi. Kiyik bir chekkaga borib: «Voh, mening quyrug'im uzilmaganda, kadi meni suvga cho'ktirib o'ldirgan bo'lar edi. Endi bir nahor qilib olay», deb turganida, yoniga ettita kiyik kelib qolibdi.

— Ha jo'ra, nimaga duming to'mtoq bo'ldi? — debdi. Bu kiyik:

— Ey jo'ralar, bu o'n kun uyimga qamab qo'ydi. Ochlikdan o'lib qolay dedim. Axiri men uni aldab qo'lga tushirdim. Quyrug'umga bog'lab, toqqa olib chiqib taraqlatib yurdim. Keyin suvga olib tushib bo'ldiqlataman deb, quyrug'imga bog'laganimcha suvga solgan edim, menga zo'rlik qildi. «Jon, kadijon, do'stim desam ham quloq solmay, quyrug'imni yulib suv tagiga tushib ketdi. Shunday qilib, to'mtoq bo'lib qoldim», — debdi. Jo'ralari:

— Ey jo'ra, uni bizlarga ko'rsat, undan o'chingni olib beraylik, — deb buloqqa qarab ketishibdi. Yurib-yurib bularning oldidan bir xirmon chiqib qolibdi. Dumi to'mtoq kiyik:

— Ey jo'ralar, menda bir maslahat bor, — debdi.

Jo'ralari:

— Ha, nima maslahat? — deyishibdi. Cho'ltoq kiyik:

— Mana shu xirmonni yanchib olib ketsakchi, — debdi.

Jo'ralari:

— Egasi kelib qolsa, qanday qilamiz, — debdi. Cho'ltoq kiyik:

— Egasini men bilaman, uning uyi olis, — debdi. Jo'ralari:

— Mayli bo'lmasa, xo'bchi 16 kim bo'ladn? — debdi. Cho'ltoq kiyik:

— Xo'bchi men-da, o'lanni yaxshi bilaman, — debdi.

Jo'ralari Cho'ltoq kiyikning maslahatiga kirib, xirmon yoniga kelishibdi. Cho'ltoq kiyik bir-birovini matashtirib bog'lamoqchi bo'libdi. Jo'ralari:

— Ey jo'ra, bo'ynimizdan bog'lamaysanmi? — debdi. Cho'ltoq kiyik:

— Bo'yingizdan bog'lasam, mergan kelib qolsa, bo'shatguncha otib qo'yadi. Quyruqlaringdan bog'layman. Mergan kelgan vaqtda o'zi echilib ketadi, — debdi. Hammasiming quyrug'idan matashtirib bog'lab, bug'doy xirmoniga solib, o'lan aytib hayday beribdi. Bir oz haydagandan keyin:

— Voy, odam isi kelyapti, — debdi. Yana u yoq-bu yoqqa qarab:— Mergan kelib qoldi, — deb turib qochibdi. Bularning hammasi «Mergan kelib qoldi, — deb biri bu yoqqa, biri u yoqqa tortib qochibdi. Shunday qilib, kiyiklarning quyrug'i uzilib, Cho'ltoq bo'lib qolgan ekan. Xo'bchi kiyik qochganicha qochib ketgan ekan.

LAYLAK BILAN TULKI³⁵

³⁴ Ўзбек халқ ижоди Кўп томлик “Ойжамол” *Ҳаётий эртаклар Иккинчи китоб* Ғафур ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти

³⁵ Ўзбек халқ ижоди Кўп томлик “Ойжамол” *Ҳаётий эртаклар Иккинчи китоб* Ғафур ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти

Laylak bilan tulki do'st bo'lgan ekan. Qimmatchilik vaqti kelib, ikkisi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kun laylak tulkiga:

— Tulki, sen uyga qarab o'tir. Men uchib borib o'zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay, — debdi.

Tulki rozi bo'lib, uyda bolalarga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi. Tulki uyda o'zining va laylakning bolalariga qarab o'tiraveribdi, oradan besh kun o'tibdi, etti kun o'tibdi, laylakdan darak bo'lmabdi. Tulkining qorni nihoyatda ochib, holidan ketay deb qolibdi, ochdan o'lar holga kelibdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo'qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini tappa bosib eb qo'yibdi. Bolani eb bo'lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, beshta qurbaqa, ikki ilonni ko'rib olib, ovdan kelyapti. Tulki aytibdi:

— Ey attangg-a, bir kun qaragam bo'lar ekan, do'stim ancha oziq olib kelar ekan, nima deb javob beraman, — deb yig'lay boshlabdi.

Laylak uyga kelsa tulki do'sti yig'lab o'tirgan emish. Laylak:

— Ey tulki do'stim, nega yig'laysan? — deb so'rabdi. Tulki yig'i aralash:

— Hay, hay laylak do'stim, bo'yni uzunjonning biri kasal bo'lib o'lib qoldi, shunga yig'layapman, — deb suyaklarini ko'rsatibdi.

Laylak xafa bo'libdi. Yig'labdi va bolasini olib, boshqa yoqqa uchib ketibdi.

ILONNING ISHI ZAHAR SOLMOQ³⁶

Bir cho'pon daladan qaytayotganda, katta ariqning narigi yog'idagi to'qayga o't ketganini ko'ribdi. Bir vaqt suv bo'yiga kelib qarasa, qamish ichida bir katta ilon vishillab kuyib ketayotgan emish. Cho'ponning rahmi kelibdi, qo'lidagi uzun tayoqning uchiga xaltani boylab ilon tomonga uzatibdi. Ilon jon holatda o'zini xaltaga uribdi, cho'pon xaltani tortib olib, og'zini ochibdi, ilonni erga tushiribdi. Shu payt cho'ponning oyog'iga chirmashib olibdi. Cho'pon hayron bo'lib:

— Nima qilmoqchisan? — deb so'rabdi ilon.

— Men seni chaqaman, — debdi. Cho'pon:

— Men yaxshilik qilib seni o'limdan qutqardim-ku, senga yaxshilik qilgan odamni chaqasanmi? — debdi. Shunda ilon:

— Men bilmayman, mening vazifam chaqish, zahar solish, menda bundan boshqa hunar yo'q, — debdi. Cho'pon:

— To'xta, bo'lmasa, birorta odamdan «yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi?» deb so'rayman, u nima desa, o'shanga qarab ish tutamiz, — debdi.

Cho'pon yo'lda davom etibdi. Ilon esa cho'ponning oyog'iga chirmashib ketaveribdi. yo'lda o'tlab yurgan bir oriq sigir duch kelibdi. Shunda cho'pon:

— Ey sigir, yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi? — deb so'rabdi. Sigir javob beribdi:

— Albatta yaxshilikka yomonlik. Men yoshligimda har kuni uch mahal sut berardim.

Xo'jayinim yaxshi ko'rar edi. Endi men qaridim, sut bermay qo'ydim, oriqladim. Ertaga meni qassobga sotish uchun bozorga olib boradilar, — debdi. Shunda ilon:

— Ana, mening aytganim to'g'ri chiqdimi?! Endi seni chaqaman, — debdi. Cho'pon:

— Yana bir so'raymiz, keyin chaqsaig ham mayli! — debdi. Ular yo'lda bir olma daraxtiga

duch kelishibdi. Olma daraxtining shoxlari singan, tagi to'la tosh, kesak ekan. Cho'pon olma daraxtidan so'rabdi:

— Ey daraxt, yaxshilikka yaxshilikmi, yoki yomonlikmi? Daraxt:

— Ey, do'stlar, albatta yaxshilikka yomonlik. Masalan, meni oling, yoshligimda ko'p meva berar edim, o'tgan-ketgan odam tosh otib, bolalar ustimga chiqib shoxlarimni sindirib shu ahvolga solishdi. Endi meni kesib o'tin qilishmoqchi. Bu yaxshilikka yaxshilikmi? — debdi.

³⁶ Ўзбек халқ ижоди Кўп томлик “Ойжамол” *Ҳаётий эртаклар Иккинчи китоб* Гафур ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти

Ilon:

— Ana, eshitdingmi, endi chaqaman, — debdi. Cho'pon:

— Yo'q, yana biror kishidan so'raylik, — debdi. Yo'lda ketishayotsa, bir tulki uchrabdi.

— Hoy tulki, to'xta, bizlar sendan bir savol so'ramoqchimiz? — debdi cho'pon.

Tulki to'xtab qarasa, bir katta ilon odamning oyog'iga chirmashib «chaqaman» deb yopishib turgan emish. Tulki:

— Nima gap? — deb goh ilonga, goh cho'ponga qarabdi. Cho'pon so'z boshlabdi:

— Ey tulkivoy, men mana bu ilonni o'limdan kutqarib qolgan edim. Endi u esa, meni chaqmoqchi, shu ham insofmi? — debdi. Tulki:

— Qanday qilib uni o'limdan qutqarding? — deb so'rabdi.

— To'qayga o't tushgan edi. O't ichida ilonni ko'rib rahmim keldi, bir yog'ochning uchiga mana bu xaltani bog'lab ilon tomon uzatdim, u xaltaga kirdi, tortib oldim, — deb javob beribdi.

Shunda tulki qah-qah urib kulib yuboribdi, cho'ponga:

— Shu kichkina xaltaga katta ilonning siqqaniga men hayron bo'lib kulib yubordim, — debdi. Ilon «ha, men sig dim», — debdi. Tulki:

— Bo'lmasa, yana xaltaga tushib ko'r-chi, sig'armikansan yoki yo'qmi? — debdi. Ilon maqtanib:

— Mana ko'r, men sig'aman, — deb cho'ponning xaltasiga kiribdi. Tulki cho'ponga ko'zini qisib:

— Xaltaning og'zini mahkam bog'la, ko'tarib aylaitirib erga ur! — debdi.

Cho'pon tulkinging aytganini qilib, ilondan qutulibdi. Yana o'z ishiga ravona bo'libdi.

TULKIBOY³⁷

Bir kuni tulkiboy changalzorda ovqat qidirib yurib, bir angishvona topib olibdi. Tulkiboy yurib-yurib bir kampirning uyiga kelib qolibdi. Kampirni ko'rib:

— Ona, senga shu angishvonani ertagacha qoldirib ketaman, ertalab kelib olaman, — deb chiqib ketibdi. O'zi eshikning tirqishidan kampirning angishvonani qaerga qo'yganini ko'rib olibdi.

Tulkiboy kampir uxlagandan keyin sekin uyga kirib angishvonani qo'ygan joyidan olib chiqib ketibdi. Ertasi kampir shoshib-pishib qatlama pishirib turganda, Tulkiboy kirib kelibdi.

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan angishvonani bering, — debdi.

Kampir yugurib uyga kirib, angishvonani qo'ygan joyidan topa olmabdi.

— Tulkiboy, angishvonang qo'ygan joyimda yo'q, yo'qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi.

Kampir:

— Yo'qolgan narsani qaerdan topib beraman, o'rniga qirq qatlama beraman, — debdi.

Tulkiboy «xo'p» deb, qirqta qatlamani olib tashqariga chiqqanidan keyin:

«Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama» deb jo'nabdi. Yo'lda ketayotsa, bir oq echki boqib yurgan kampirni ko'ribdi. Tulkiboy kampirga:

— Ona, shu qirqta qatlamani ertagacha omonat olib qo'ying. Ertalab kelib olaman, — debdi.

³⁷ Ўзбек халқ ижоди Кўп томлик “Ойжамол” Ҳаётний эртаклар Иккинчи китоб Гафур гулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти

Kampir qirqta qatlamani uyiga olib kirib ko'rpaning qatiga bekitib qo'yibdi Tulkiboy yana eshik tirqishidan mo'ralab turib qatlama qo'yilgan joyni ko'rib olibdi. Kampir kechasi uxlaganda kelib, lekin kampirning uyiga kirib qirqta qatlamani bitta ham qoldirmay eb ketibdi.

Ertasi ertalab kelib:

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan qirq qatlamani olib bering, — debdi.

Kampir uyiga kirib ko'rparasining qatini qarasa, bitta ham qatlama qolmabdi. Kampir:

— Tulkiboy, qo'ygan joyimdan qatlamalaring yo'qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi. Kampir tulkiboydan qo'rqib:

— Bisotimda bir donagina oq echkim bor, qirq qatlamang o'rniga shuni berayin, — debdi. Tulkiboy oq echkini etaklab, xursand bo'lib:

«Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki» deb jo'nabdi. Tulkiboy oq echkini etaklab ketayotlsa, bir nor tuya boqib yurgan cholni ko'ribdi. Tulkiboy cholga yaqin kelib:

— Ota, ertagacha mana shu echkini sizga omonat qoldirib ketaman, ertaga kelib olaman, — debdi.

Chol «xo'p» deb echkini hovlisiga olib kirib bog'lab qo'yibdi. Kechasi chol uxlaganida tulkiboy kelib, oq echkini eb, terisini qoldirib ketibdi. Ertasi tulkiboy cholning oldiga kelib:

— Ota, kecha qoldirib ketgan omonat oq echkini bering, — debdi. Chol tulkiga:

— Kechasi echkini bo'ri eb, terisini qoldirib ketibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Echkini topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi.

Chol:

— Bisotimda birgina nor tuyam bor, oq echkining o'rniga beraman, — debdi.

Tulkiboy nor tuyani etaklab: «Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nor tuya» deb, xursand bo'lib jo'nabdi. Tulkiboy nor tuyani etaklab yurib, qizi bilan ip yigirib o'tirgan kampirga uchrabdi.

Tulkiboy:

— Ona, mana shu nor tuyani ertagacha sizga omonat qoldirib ketaman, erta bilan kelib olaman, — debdi.

Kampir nor tuyani hovlisiga olib kirib bog'lab qo'yibdi. Kechasi kampir uxlaganda, tulkiboy nor tuyani hovlidan olib chiqib, bir changanzorga olib borib qo'yibdi, ertasi kampirning oldiga kelib:

— Ona, kechagi qo'yib ketgan omonat nor tuyani bering, — debdi. Kampir qarasa, nor tuya bog'langan joyida yo'q, axtarib topa olmabdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi.

Kampir tulkidan qo'rqib:

— Nor tuyang o'rniga berishga hech qanday molim yo'q. Birgina oydin qizim bor, ona-bola ip yigirib kun kechiramiz, — debdi.

Tulkiboy:

— Nor tuyam o'rniga shu oydin qizingizni bering. Bermasangiz, ona-bola ikkovingizni ham eb ketaman, — debdi.

Kampir nochor, noiloj, yolg'izgina oydin qizini tulkiboyga beribdi.

Tulkiboy oydin qizni olib xursand bo'lib kampirga qarab: «Bir angishvona, bir

angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nor tuya, nor tuyaga oydin qiz»

deb, oydin qizni qopga solib, qopning og'zini bo'g'ib, orqasiga ko'tarib jo'nabdi. Bir to'qaydan

o'tib ketayotsa, uzoqdan itini etaklab kelayotgan bir ovchi ko'rinibdi. Tulkiboy orqasidagi qopni

erga qo'yib, o'zi bekinibdi. Ovchi kelib qopni ochib qarasa, ichida bir qiz o'tirgan ekan. Ovchi

qopdan qizni chiqarib olib, qiz o'rniga itini qopga solib og'zini bo'g'ib boylab qo'yibdi. Ovchi

ketgandan keyin tulkiboy kelib «ovchidan qutilib qoldim» deb suyunib, qopni orqalab jo'nabdi

Yo'lda ketayotsa, qopning ichidan ovoz chiqibdi. Tulkiboy: «Yig'lama oydin qiz, yig'lama, hozir

uyga etamiz» deb, qadamini ildam tashlab uyga etib kelibdi. Qopning ichidan yana ovoz kelibdi.

Tulkiboy: «Oydin qiz, qopning ichida zerikkanga o'xshaysan. «Bir angishvona, bir angishvonaga

qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nor tuya, nor tuyaga oydin qiz chiq!» deb

qopning og'zini ochibdi. Qopning ichidan quloqlarini shalpaytirib ovchining iti chiqibdi. Oydin qiz

chiqishini kutgan tulkiboy ovchi itning haybatini ko'rib qochib ketibdi. It tulkining ketidan quvlab

ketibdi. Tulki o'zini bir shudgor tomonga

olibdi. Tulki yugurib ketayotib quyon tutish uchun qo'yilgan qopqonga tushib qolibdi. Qopqonning

egasi kelib tulkining terisini shilib olibdi.

BUZOQ, ECHKI VA QO'ZI³⁸

Bor ekanda yo'q ekan, bir dangasa bor ekan, hech ishga tobi yo'q ekan. U hatto shu daraja

dangasa ekanki, kunga chiqib o'tirishni ham xushlamas ekan. Uning birgina xotinidan boshqa hech

kimi yo'q ekan. Bahor kelib, o'tlar ko'karib, yozning issiq kunlari kelmasdan boylar o'z mollari

bilan yaylovga ko'chib ketar ekanlar. Hech qanday moli bo'lmasa ham dangasa xotini bilan ularga

ergashib ko'chib keta berar ekan.

Bir qancha vaqt o'tgach, dangasaning xotini har kimning ishini qilib, bir oz pul topibdi.

Kunlardan bir kun dangasaning xotini topgan pulini berib, aytibdi:

³⁸ Ўзбек халқ ижоди Кўл томлик “Ойжамол” Ҳаётлий эртақлар Иккинчи китоб Ғафур ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти

— Biz ham mol qilib, yaylovga ko'chib boraylik, bozordan bir mol sotib oling.

Dangasa bozorga tushib katta hayvonlardan sotib olishga puli ozlik qilibdi, yurib-yurib oxiri bir qo'tir uloqni sotib olibdi.

Yana bir hafta o'tgandan keyin dangasaning xotini uning qo'liga: «mol oling», deb yana bir oz pul beribdi.

Dangasa bozorga borib bir qo'tir qo'zi sotib olibdi.

Yana bir hafta o'tgandan keyin dangasaning xotini uning qo'liga yana pul berib:

— Bozordan bir mol sotib oling, — debdi. Dangasa bozorga borib, bir qo'tir buzoq sotib olibdi.

Shu orada bahor kiribdi. Boylar mol-hollari bilan yaylovga ko'cha boshlabdilar.

Dangasa olib kelgan mollariga qaramay, xotini bilan boylarga qo'shilib ko'chib keta beribdi. Xotini ham «molimiz boylarning mollari ichida yurgandir», deb xotirjam bo'lib keta beribdi. Dangasaning qishi bilan yashagan joyida ham o'tlar chiqib, oradan ko'p vaqt o'tmay uning qarovsiz qolgan mollari semirib ketibdi. Endi buzoq buqa, uloq serka, qo'zi qo'chqor bo'libdi. Uchalasi kunda birga o'tlab kelib uyda yota beribdi. Kunlardan bir kuni uyga bo'ri kirib qolibdi.

Ularni ko'rib o'ziga uch kunlik ovqat deb mo'ljallab xursand bo'lib, ashula aytibdi:

Dingirdik-dingirdik

Buzoqcha ham bir kunlik

Dingirdik-dingirdik

Uloqcha ham bir kunlik.

Dingirdik-dingirdik

Qo'zichoq ham bir kunlik.

Shunda aqlli buzoq o'ylab turib, bo'riga bir siyosat qilib ko'rmoqchi bo'libdi: Buzoq turib:

— Echki, sen eshikni to's, qo'y, sen teshikni to's, — deb buyruq beribdi.

Buzoq tilini chiqarib bo'kira bergandan keyin, bo'ri qo'rqib ketibdi, nima qilishini bilmay, uydan yugurib chiqib qochib ketibdi.

Bo'ri shoshilib qochib ketayotganida sakkizta bo'ri bir erda to'planib turgan ekan. Ulardan biri:

— Ey, og'ayni, nimaga qochib ketayotibsan? — deb so'rabdi.

Bo'ri:

— Mana bu erda buzoq-buqa, serka-taka, qo'zi-qo'chqor uchovi meni o'rtaga olib qolgan edilar, arang ularning oldidan qochib ketayotibman, chaqqonlik va abjirlik qilib qochib qoldim, O'zbek xalq ertaklari. Oyjamol bo'lmasa, o'lar edim, — debdi.

Bo'rilar aytibdi:

— Shoshma, bizni ularning oldiga boshlab bor, ularni bir eylik.

Dangasaning mollari ham bo'rilarning to'dalanib kelishini bilib, o'zlarini panaga olibdilar. Hovlida bir tup o'rik bor ekan. U o'rikning ayrisiga echki bilan qo'zi buzoqni bir amallab ko'tarib chiqazib qo'yibdilar. Uning ketkdan shu o'rikka qo'zi keyin echki chiqib yashirinibdi.

Birdan hovliga to'qqiz bo'ri kirib kelibdi. Bo'rilar uyni, molxonani qarab, qidirib-qidirib buzoq, echki, qo'shni topolmay, boshlab kelgan bo'rini «bizni aldading», deb koyibdilar. Qochib borgan bo'ri:

— Xuddi mana shu erda ko'rgan edim, — deb ularni ishontiribdi.

To'qqiz bo'ri o'rik ostiga to'planib fol ochibdilar. Shu payt o'rik ustidagi buzoq shoxga o'rnanib turolmay sekin-sekin og'a boshlabdi.

Shunda buzoq asta-sekin:

— Ey, og'ib ketyapman, og'ib ketyapman, — debdi. Echki:

— Tilingni tishla, tilingni tishla! — debdi. Axiri buzoq o'rnanib turolmay gumbillab fol ochayotgan bo'rilar ustiga ag'anab tushibdi. Echki bo'lsa, o'rik ustidan turib:

— Fol ochganini ushla, fol ochganini ushla! — deb baqiribdi.

To'qqiz bo'ri qo'rqib, to'qqiz yoqqa qochibdi. Bo'rilar qochib, borib-borib bir erga to'planibdilar. Eson-omon qutulganlari uchun shodlanib bir-biriga:

— Folchisini ushla, deb baqiradi, ular bizning folchimizni ushlab olgandan so'ng avlod-ajdodimizni qo'ymay quritar edi. Yaxshiki vaqtida qochib qoldik, endi boshqalarga ham aytaylik, bu erlarga hech kelmasinlar, — deyishib jo'nab qolishibdi.

Dangasaning mollari bo'rilardan sog'-salomat qutulib, semirib, xursand bo'lib yuribdilar.

Kunlardan bir kuni dangasaning xotini:

— Ey, bizning mollarimiz bor edi, ular qayoqda qoldi? — deb so'rabdi.

Keyin er-xotin mollarini qidirib yo'lga tushibdilar. Dangasaga ham g'ayrat kiribdi.

Ular o'z hovlilariga kelib ko'rsalar, mollari o'tlab yurgan ekan. Shu bilan er-xotin ham molga ega bo'lib murod-maqsadiga etgan ekan.

BOTIR ECHKI³⁹

O'tgan zamonda bir faqir er-xotin bo'lar ekan. Ularning bisotida faqatgina bitta echkisi bor ekan. Echkisiga har kuni bir siqim quruq xashakni berib, elinlariga mushtlab kuniga bir kosa sut sog'ib olishar ekan. Ularning kunlik ovqati shu bir kosa sut bilan o'tar ekan. Lekin bechora echkiga har haftada bir kun dam berishar ekan. Echki shu dam oladigan kuni bo'shalib borib, erkin tirikchilik qilar ekan.

³⁹ Ўзбек халқ ижоди Кўп томлик “Ойжамол” Ҳаётлий эртақлар Иккинчи китоб Гафур ғулом номидаги Бадийй адабиёт нашриёти

Echki erta bahorda, qishloqqa yaqin bir o'rmonzorda o'tlab yurarkan, nogahon unga bir sovluq qo'y kelib salom beribdi. Echki bunday qarasa, shu sho'ring qurg'ur sovluq bechoraning holi xarob, buq'ri kabob ko'rinibdi. Oriq, terisi borib suyagiga yopishib, har qovurg'asi «mana men», deb qonaytib turibdi. Echki sovluqning salomiga alik olib, unga aytibdi:

— Ko'zing o'zini erga solib, yuzingga boqqani uyalib, po'stingda unda-muda bir tuk, u ham bo'lsa, o'zingga og'ir yuk, — debdi. Echkidan bu gapni eshitib, sovluq izza bo'lib, uning yuziga qarab:

— O'rtoq echki, sen oldin o'zingga boq, so'ngra o'zgaga boq. «O'zingni bil, o'zgani qo'y», degan gapni eshitganing yo'qmi, ishtoni yo'q, tizzasi yirtiqqa kulmay qo'ya qolsin. Bu aytgan bayting o'zingga mos keladi, — debdi.

Shundan keyin bular bir-birlari bilan tanish-bilish bo'lib, gaplashib ketibdilar. Har ikkalalari o'zlarining boshlaridan o'tganlarini aytishibdilar. Echki:

— Mening xo'jayinim bor. Xo'jayinimning mendan boshqa hech narsasi yo'q, eydigan ovqati ham yo'q, faqat er-xotin menga zo'rg'a bir tutam quruq xashak topib berib, elinimga mushtlab urib, bolam uchun tayyorlagan bir kosa sutimni sog'ib olib, ovqat qilishadi. Haftasiga zo'rg'a bir kun erkinlikka chiqaradi. Faqat juma kuni erkin yurib o'ynayman, yuragimning chigilini ancha yozib ketaman, — debdi.

Echkidan keyin sovluq qo'y ham boshidan o'tganlarini gapiribdi. Uning turmushi ham echkining turmushiga o'xshash ekan. Uni ham faqat juma kuni boshvog'ini olib, dam berib qo'yib yuborar ekanlar. Shunda bular xo'jayinlarining jabr-zulmlaridan qutulish yo'lini axtaribdilar. Axiri bular bir joyga qochib ketishga maslahat qilishibdi.

— Endi qaerga qochamiz? — debdi sovluq.

Echki butun atrofqa qarab olib:

— Mening otam: «Hu, o'sha ko'ringan tog' juda ham o'tloq joy, suvlari yaxshi, havosi undan ham yaxshi, bolam, bir iloj qilib o'sha joyga etib borsak, umrbod rohatda o'tardik, bu erda ko'rgan azoblarimiz ham esimizdan chiqib ketardi», deguvchi edi. Lekin otam rahmatli u erga etolmay, bizni ham etkizolmay, olamdan o'tib ketdi. Otam menga: «Agar mening bolam bo'lsang, o'sha joylarga barsang, keng yaylovlarda men uchun ham u yoq-bu yoqqa yugurib, mening arvohimni shod qilib qo'yasan», deb vasiyat qilib ketgan edi. Endi shu joyga borsak, ko'p yaxshi bo'ladi, — debdi.

Bu gap sovluqqa ko'p maqul kelibdi. Ikkalasi hayyo-hu, deb o'sha ko'ringan toqqa qarab jo'nashibdi.

Bular yo'lda ketayotganda, uzoqdan bir narsaga ko'zlari tushibdi. «Bu qanday narsa ekan», deb turishganda, u narsa bir ho'kiz bo'b chiqibdi. Ho'kizning tinkasi qurigan, sekin-sekin qadam bosib ketayotgan ekan. Echki bilan sovluq bu yoqdan etib borib qarashsa, bir qo'ng'ir ho'kiz shoxi xuddi

bir quloch keladi. Juda ham oriqlab ketgan. Ko'zlari shokosaday, shafaq bosgan, bo'yni qing'ir tilday erga egilgan, cho'qqisi qirday irg'ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi.

Echki salom bergan ekan, bechora ho'kiz boshini bir likanglatib, arang alik olibdi. Gapirgani majoli ham qolmabdi. Ho'kiz bulardan «ha bolalar, yo'l bo'lsin?» deb so'rabdi. Echki:

— Ulug'imiz sizdan bo'lsin? — debdi.

— He bolalar, hafta ishladik, ertaga shanba bo'lsa, bukun bir hordiq chiqarib, sal tiklanib olay deb kelyapman, — debdi. Undan keyin echki bilan sovluq ham boshlaridan o'tkazganlarini aytib, oxirida xo'jayinlari bilan xayr-mazurni nasiya qilib, toqqa qarab ketayotganliklarini aytishibdi. Shunda ho'kiz turib aytibdi:

— Dunyoning g'am-g'ashidan juda chiqdim. Sahardan to namozshomgacha ishlaysan, ancha-ancha emni haydaysan, kech kirib juda darmoningdan ketganingda qo'shdan chiqaradi, o'lganing ustiga ko'mgan deganday, ketishda quruq ketmasin bir arava cho'p-cho'makni ham yuklab ketishadi. Uyg borsang tuzuk-quruq ovqat yo'q. Endi badanda jir tugadi. Quvvat ketdi. Bu jabr-zulmlardan qanaqa qilsam qutular ekanman, deb ko'p vaqtlardan beri o'ylanardim. Yaxshi bo'пти. Sizlar shu maslahatni topibsizlar. Endi men ham sizlar bilan ketaman, — debdi. Ular: «xo'p, bo'пти», — deyishibdi.

Shunday qilib, bular uchalasi toqqa qarab jo'nashibdi.

Bular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, mo'l yursa ham ko'l yurib, axiri bir kun toqqa etishibdi. Tokqa borishsa, bu tog' echki aytganday, juda ham obod ekan. Istagan ovqat topilarkan. Havosi juda baland, suvlari tiniq. Bular borishi bilan yaxshilab qorinni to'qlab, adirlikdagi katta chinorning tagida makon qurib yota berishibdi. Shu kuni kechasi oyoqlarini uzatib uxlashibdi. Saharga borganda echki uyqusida bosinqirabdi. Uning tushiga xo'jayinlari kirib: «Sen qayoqqa yo'qolding, sendan necha kunlik sutni sog'ib olaman», deb uni tushovlab, sog'a boshlabdilar. Bir kosa sut chiqqandan keyin, sut chiqmay qolibdi. Shunda xo'jayini: «Sen qolgan sutlarni nima qilding», deb qo'liga katta so'yilni olib hadeb urgani turibdi. Shunda echki ovozining boricha «dod» deb qichqiribdi. Buning ovozini sovluq bilan ho'kiz eshitib, bunga nima bo'ldi, deb uyg'otishibdi. Echki uyg'onib darrov ichiga tupurib:

— Xudoga shukur-ey, tushim ekan! Tushimda hadeb xo'jayinim uryapti, — debdi.

Ho'kiz aytibdi.

— Bu tushing bo'lmay, nima bo'ladi, endi xo'jayining xam yo'q. Xo'jayinning katta so'yili ham o'zi bilan birga qoldi, — debdi. Shunday qilib bular bu erda juda yayrab qolishibdi.

Kundagiday sahar uyg'otish, bo'yniga arqon solish yo'q. Ovqat serob, tergaydigan odam yo'q. Bular tez kunda juda ham tozarib, semirib ketishibdi. Ho'kiz juda ham semiribdi. Uning savlatini

ko'rganda har qanday yovvoyi hayvonlar ham qochadigan bo'libdi. Bir kuni ho'kiz sheriklariga aytibdi:

— Men har kuni ichkarida yotib, issiqlab qolayotibman, bu kun chinorning tagida yotaman, — debdi.

Shu kuni echki bilan sovluk ichkarida yotishibdi. Xo'kiz tashqarida yotibdi.

Shu kuni qattiq sovuq bo'lib ho'kiz yotgan erida shamday qotib qolibdi. Erta bilan o'rtoqlari chiqib, ho'kizni chaqirsa hech tovush bermabdi. Nima bo'ldi ekan, deb borib qarashsa, sovuqdan shodiyangqoqi bo'lib, muzlab qolibdi. «Endi nima qilamiz» deyishibdi. Axiri buni o'tga qizitmasak bo'lmaydi deb, echki darrov chinorning ustiga chiqib u yoq-bu yoqqa qarabdi.

Qarasa yaqin bir pastlikdagi o'ngurdan tutun chiqib turibdi. CHinordan darrov tushibdi, tushib sovluk ikkalasi ho'kizni arang suyashib tutun chiqqan tarafga boshlashibdi. Yo'lda ketayotlsa, birjoyda bir yo'lbars, bir bo'ri, yana bir tulkining terisi yotibdi. Echki terilarni olib ho'kizning ustiga yopibdi. Yana jo'nashibdi. Bular tutun chiqqan erga borib qarashsa, bu joy butun vahshiy hayvonlar o'tiradigan joy ekan. Bular shu erda to'planib olib, gap eyishar ekan.

Sovluq bilan ho'kiz qo'rqib orqalariga qaytmoqchi bo'libdilar. Echki ularni to'xtatib ho'kizning ustidagi boyagi yo'ldan topgan terilarini olib, unurning og'ziga tashlab, ichkariga salom berib kiribdi. Ho'kiz bilan sovluk ham kiribdi. Kirishsa ichkarida bo'ri, arslon, tulki, qoplon va sherdan tortib hamma vahshiy hayvonlar bor. Yo'lbars podshoh ham taxtda o'tiribdi. Shu kuni tulki gap beradigan ekan. Tulkini o'rtaga olib juda ham siqib: «Nimaga bu kun ovqat topib kelmading?» deb turishgan ekan. Tulki: «Hamma joyni qidirib keldim, sira ham ovqat uchramadi, xudo o'zi etkazmasa, bandasi nima qiladi», deb turgan ekan. Shunda birdan bular kirishib qolishibdi. Bularni kirishi bilan tulki juda xursand bo'lib ketib, bir baytni aytibdi.

Tulkining baytini eshitib, echki ham cho'nqayib, podshohga qarab bayt aytibdi.

Namangan shahrida qassob edim, do'stlar,

Oltmish yo'lbars, oltmish bo'ri, oltmish tulki

So'yishga qo'l qo'ygan pudratchi edim.

Xudoyimdan o'rgilay endi keldim koniga.

Ishonmasang chiqib qara, endi bo'ldi bittadan, — debdi.

Shundan keyin, undagi vahshiy hayvonlar birin-ketin chiqib qarab boyagi terilarni ko'rib ichkariga qaytib kirmasdan, shundan nari ketaveribdilar. Axiri yo'lbars podshoh o'zi yakka qolib, qo'rqqanidan u ham chiqib ketayotgan ekan, ho'kiz yugurib yo'lbarsning qornidan suzib borib, jarga taqab turib qolibdi. Buni ko'rib echki bilan sovluk ham hurishga kiribdi. Ular ham borib tisarilib turib, oldinga qarab yugurib, yo'lbarsni suza boshlabdi. Yo'lbars qarasa, bular o'ldirib qo'yadi. Axiri yalingani turibdi. Yo'lbars aytibdi:

— Jon akalar, endi bundan buyoq sizga hech davogarlik qilmayman, sizlar turgan joyga birorta hayvonning qadamini bostirmayman. Meni qo'yib yuboringlar, — debdi.

Ular yo'lbars podshohdan vadani olib, urib-surib haydabdilar. Vahshiy hayvonlar ketgandan keyin bular bu joydagi o'ljalarni olib, ho'kizga yuklashib joylariga qarab ketibdilar.

Boyagi vahshiy hayvonlar ulardan qochib borib, bir erga to'planishibdi. Ular: «Shu uchta go'shtdan qochdikmi?» deb, qochganlariga pushaymon qilib, yana ularni quvib bormoqchi bo'lib jo'nabdilar. Echki ularning kelayotganini bilibdi. Echki darrov qo'y bilan ho'kizning oldiga kelib, ularni chinorga yuboribdi. O'zi bir balandlikka chiqib turibdi. Echki qo'y bilan ho'kizga agar haligi vahshiy hayvonlar bizni izlab topolmay, shu erda o'tirib qolishsa, qattiq ovoz qilib chinordan o'zlarini tashlanglar, deb gap o'rgatgan ekan. Boyagi vahshiy hayvonlar izlab kelib qolibdi. Ular chinorning tagiga kelganda tulkiga yalinibdilar:

— Ana biz ularni topolmadik. Sen romchi eding, bir rom qarab qo'ygin, ular qayda ekan? — deyishibdi.

Tulki ham cho'nqayib o'tirib rom qarab ketibdi. Tulki rom qarab, hamma hayvonlar uning og'ziga tikilib o'tirgan ekan, birdan yuqoridan allaqanday bir ovoz chiqib, bir narsalar tushib kelib qolibdi. Ular boyagi ho'kiz bilan qo'y ekan. Shu holda birdan narigi yoqdan:

— Romchisini ushla, romchisini ushla, — deb ovoz kelib qolibdi.

Bu ahvoldan qo'rqib vahshiy hayvonlar orqa-oldiga qaramasdan qochib ketishibdi. Bundan keyin ular bu joylarga butunlay kelmaydigan bo'lib ketibdilar. Shu bilan ho'kiz, echki, qo'ylar bu joyda umrbod yashab qolishibdi.

INDEPENDENT WORK:

1. The main problems in the translation of Uzbek fairytales into English.
2. The adequacy as a criterion in translation of Uzbek fairytales into English.

CORE LITERATURE:

1. Barkhudarov L.S. Language and Translation. M. 1975.
2. Catford I.C. A Linguistic theory of translation. L.N/Y.
3. Shvaytser A.D. Translation and Linguistics. M.1973.
4. Levitskaya T.R, Fiterman A.M. The problems of translation on the material of the contemporary English language. M.1974.

ADDITIONAL LITERATURE:

1. Nida.E. Towards a science of translation. Leiden. 1964.
2. Roger. N. Bell. Translation and translating . Theory and practice. London, New York. 1995.
3. Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. T. 1978.

4. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari. T. 1983.

TECHNOLOGICAL MAP OF THE MODULE

MODULE 7. The translation of the Uzbek short stories into English

Course: 1; Semester 2;

Time: 160 min.

Aim: To improve reading, listening, writing and speaking

Activity	Objectives	Procedure	Duration	Mode of Interaction	Methodics	Material
Pre-activity	-to get students to think about the topic -to show them two pictures and ask them to tell the difference the two	-discussion of the pictures -practicing the pronunciations of new words from the text. -referring to transcription -introducing the new vocabulary words	40 min.	group work	Think-Pair-Share With students seated in teams of 4, have them number them from 1 to 4. Announce a discussion topic or problem to solve. (Example: What are the SP of the given texts? How could we define them?) Give students at least 10 seconds of think time to think of their own answer. Using student numbers, announce discussion partners. (Example: For this discussion, Student #1 and #2 will be	- Book: Listening Extra -black board -posting the pictures on the board

					partners. At the same time, Student #3 and #4 will talk over their ideas.)Ask students to PAIR with their partner to discuss the topic or solution. Finally, randomly call on a few students to SHARE their ideas with the class	
While-activity	-to introduce the topic	-read, translate and analyze the text -working on the exercises: translating the following sentences; fill in the blanks with suitable words; matching the definition; -working on the vocabulary notes	80 min.	-group work -pair work -individual work		-handouts -black board - dictionaries
Post-activity	-to sum up the topic -to give a brief statement of the topic	-answering the questions -to have a discussion about stylistic problems -characterize the situation	40 min.	group work		-handouts -black boar

		-give an example to show how man is affecting the ecology				
--	--	---	--	--	--	--

THE TECHNOLOGY OF THE MODULE 7

Theme	The translation of the Uzbek short stories into English
Duration	4 hours
Goals and tasks	To found the knowledge skills of the students of the translation theory and practice department; Introduce the students to the English fairytale's style; Work-out the set-structures for the fairytales translation;
The content of educational process	To introduce the new information on the given topic by means of practical material. To solve debatable problems during practical activities.
The technology of educational process	Method: interactive method. Form: group discussion. Facilities: getting into the role of native speaker. It is necessary to think and answer both in English and Uzbek. Control: Teacher listens carefully and sums up, taking into account the activity of each student.
Expectations	The achieved results: by means of this method teacher enables the students to think freely and to express their point of view. Student develops logical thinking and orator abilities.
Perspective (analysis, correction)	Teacher: to use new pedagogical technologies at other lessons. Student: to develop a discussion through other methods (cluster, boomerang), to write a report.

- I. Translate the texts and write out the new vocabulary.
- II. Discuss the stylistical peculiarities of the given texts and outline the general idea;
- III. Work out the set structures vastly used in the texts;

O'tkir Hoshimov
DEHQONNING BIR KUNI⁴⁰

Muyassar tong saharda uyg'onib ketadi-yu, Alijonning bir tekis chuqur-chuqur nafas olishiga quloq solib, jimgina yotadi. «Qachon qaytganini bilmabman ham», deb o'yladi u satin ko'rpadan boshini chiqarib. Devordagi osma soat besh marta zang uradi. Uning titroq sadollari uyning shiftiga, zardevorlar, kirpechlar osilgan devorlarga yumshoqqina urilib, singib ketadi. Uy ichi yana jimjit bo'lib qoladi. Soat kaftgiri sukunat qo'ynida goh sekin, goh qattiqroq chiqillayotganday bo'ladi. Oy derazadan o'ychan mo'ralaydi. Muyassar erining yelkasidan quchgisi keladi-yu, o'ylab qoladi. «Charchagan, dam olsin...».

U o'rnidan ohista sirg'alib chiqadi. Sandiq ustida yotgan nimchasini kiyib oladi-da, yana reining tepasiga keladi, uzoq qarab qoladi. Alijonning keng, tarang peshonasiga mayda ter tepchib chiqibdi.

«Bechoraginam, — deb o'yladi Muyassar undan ko'z uzmay, — biram toliqibdiki, do'ppisini ham olib qo'yabdi».

U erining peshonasini kafti bilan avaylab artadi. Keyin ayvonga chiqadi. Ayvon labiga tegib turgan gultojixo'rozlar boshida, hovli etagida uyib qo'yilgan g'o'zapoyalar ustida shabnam yaltiraydi. Yum-yumaloq to'lin oy qishloqni o'zining nurli yo'rgagiga o'rab, uyquga, shirin tong uyqusiga chorlaydi, unda-munda yulduzlar mudraydi. Ammo qishloq allaqachon uyg'ongan. Har qaysi hovlining burchagida tunning baxmal pardasini parchalab o't yaltiraydi: odamlar tandirlariga olov yoqishgan.

Muyassar ham ayvondan chaqqon sakrab tushadi-yu, samovarga o't tashlaydi. Keyin o'choqboshidan suprani olib kelib, cho'kkalab o'tyrgancha xamir qoradi. Tog'orani dasturxon bilan o'rab-chirmab, hovli burchagidagi uyilib yotgan g'o'zapoyalar oldiga boradi. Bir quchoq g'o'zapoya olayotganida, qo'llarini havoda muallaq tutganicha to'xtab qoladi. Dastak devorning orqasidagi, qo'shni hovlidagi bir tup o'rikning duv to'kila boshlagan yaproqlari tong shamolida ohista pirpiraydi.

Muyassarning yaqingina o'tmishini, kechagi kunlarini yodiga solganday shivirlaydi. Bir paytlar mana shu o'rik shoxiga arqon ilib arg'imchoq uchardi. Shu o'rikning g'o'rasini birinchi bo'lib o'zi yerd.

Endi u sho'x qizaloq emas, kelin. Devor-darmiyon qo'shnisiga tushgan. Dadasi ham ularga — Muyassar bilan Alijonga o'z qo'li bilan fотиha bergan. «Alijon yaxshi yigit, o'zimizning sinashta bola.

Yetim o'sgan. Bir-biriga ko'ngil qo'yibdi, bo'ldi-da!», degan.

Muyassar to'y kuni dadasi qanchalik uzundan-uzun duo qilganini eslab jilmayib qo'yadi-yu, g'o'zaloyani olib tez-tez yurib ketadi. Qoq-quruq g'o'zapoya gup etib yonadi, yuziga olov tafti uradi. U endi uy tomonga yurganida buzoq ma'raydi. Sigir ham Muyassarning qadam tovushlaridan uyg'onganday asta mo'rab qo'yadi.

Muyassar ayvon labidagi kattakon sirli chelakni ko'tarib, xashak isi anqib turgan og'ilxonaga kiradi. Nimqorong'i burchakda yotgan sigir pishillab o'rnidan turadi.

1. ⁴⁰ Ўткир Ҳошимов “Ҳикоялар” Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент – 2002; 2-10-betlar

«Tagi ho‘l bo‘libdi, tozalash kerak», deb o‘ylaydi u. Keyin sigirning yelinini ho‘llangan eski sochiq bilan tozalab artadi-da, cho‘qqayib o‘tirgancha sog‘a bosh-laydi. Iliq sut tomchilari chelakka shovillab tushib, ko‘pirib ketadi, bilaklariga sachraydi.

Chelak to‘lganidan keyin qoziq atrofida aylanib, onasiga talpinayotgan buzoqchanning arqonini yechib yuboradi. Buzoq shodon dikonglab sigir tagiga kirib ketadi.

Muyassar bolalikdan odat bo‘lib qolgan chaqqonlik bilan non yasaydi. Bir savat qilib tandir oldiga ko‘tarib boradi, bitta-bittadan yopa boshlaydi. Oxirgi nonni yopadi-yu, yengil nafas oladi.

— Muyas!..

U erining ovozi eshitib, chaqqon burilib qaraydi. Beqasam to‘nini yelkasiga tashlab olgan Alijon aivon labida unga qarab turibdi.

— Keling! — deydi Muyassar obdastaga suv quya turib.

Alijon ayvondan ildam tushib, gulzor labiga keladi. Muyassarga tikilib jilmayadi.

— Punktda navbat kutish yomon-da, Muyas... Har kecha yuztalab mashina qatorlashib ketadi.

Qo‘yib bersa tong otguncha turaverasan kishi, — deydi sekingina. Muyassar uning kecha uyga barvaqt qaytolmagani uchun uzr so‘rayotganini tushunadi.

Erining baquvvat yelkasidan ushlab jilmayadi...

— Engashing.

Alijon ham uning arazlamaganini payqaydi-yu, boshini quyi soladi.

— Mana, boshim sizniki, — deydi kulib.

Muyassar suv quya boshlaydi. Alijon muzday suvdan seskanib, pishqira-pishqira yuvinadi.

— Yuvinayotganingizda har doim otga o‘xshab pishqirasiz-a... Qarang, ko‘ylagimni jiqqa suv qilib yubordingiz, — deydi Muyassar ho‘l bo‘lgan etaklarini ko‘rsatib.

Alijon boshini ko‘tarib astoydil yalinadi:

— Hech bo‘lmasa toychoq deng, Muyas.

Muyassar uning yosh bolalarday boshini bir yonga tashlab turishiga qarab, kulib yuboradi.

Shu ondayoq tandirdagi non esiga tushib, yuguradi. Qo‘llari kuya-kuya bir savat non uzib oladi.

Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig‘ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, choratrof odatdagi qiy-chuvga to‘lib-toshadi.

Ikkovlari shosha-pisha shirchoy ichishadi. Alijon tushlik ovqatini belbog‘iga tugadiyu mashinasining yoniga ketadi. Darvozaxona tomondan motorning guldiragan ovozi eshitaladi. Kabina eshiklari qarsillab yopiladi.

Muyassar uyni naridan-beri yig‘ishtiradi-da, ikki chetida qator-qator teraklar shovillab turgan toshloq yo‘ldan dalaga tomon yurib ketadi. Uzoqda, tog‘ ortidan quyosh bosh ko‘taradi. Qishloq suv quyganday jimib qoladi. Paxtazor katta-kichik hammani, maktab bolalarigacha domiga tortgan. Muyassar etakni beliga bog‘lab olgancha paykalga sho‘ng‘iydi. Paxtalar yonog‘iga ilingan qirov sekin-sekin shudringga aylanadi. U esini taniganidan beri o‘rganib ketgan ishini tag‘in qaytadan boshlaydi. Zum o‘tmay etak to‘lib-toshadi. Bora-bora beli zirqillab og‘riy boshlaydi. Zax, yumshoq egat ichiga etakni ag‘daradi-yu, yana qayta bog‘laydi. Ko‘z o‘ngidan o‘nlab, yuzlab, minglab chanoqlar birma-bir o‘tadi. Goho shunday boshi aylanib ketadiki, ko‘zini yumsa, tasavvurda oppoq chanoqlardan boshqa hech narsa ko‘rinmay qoladi. Ammo u to‘xtamaydi. Engashib oldinga intilaveradi, Peshinga yaqin kun qizdira boshlaydi. Muyassar nimchasini yechib tashlab, tag‘in g‘o‘zalar orasiga sho‘ng‘iydi. Shu payt muloyim kuz quyoshida erigan yumshoqqina havoni titratib, tabelchi Shoqosim akaning tanish ovozi yangraydi.

— Hoy, ho-oy, qizlarov, ovqatga-e-e! Uning tovushi paxtazor ustida anchagacha elas-elas sado berib turadi.

Muyassar tergan paxtalarini uyib, etakka bosadi, yukning og'irligidanmi, o'yga tolibmi, boshini quyi solganicha, xirmonga chiqib boradi.

Rhoqosim aka etakni temir taroziga qo'yib, toshni surarkan, salqi qovoqlarini lipillatib Muyassarga qarab qo'yadi. Burushiq yuzi oqarib ketganday bo'ladi: — Qirq sakkiz kilo... Mazangiz yo'q-ku, kelin!

Muyassar uning nimaga shama qilayotganini bilib g'ijinadi. «O'yin-kulgidan bo'shamay qolding», demoqchi-da!

U bir gap bilan qayirib tashlagisi keladi-yu, yoshini hurmat qilib, o'zini tiyib qoladi. «Mayli, — deb o'ylaydi paxtani xirmonga ag'dara turib. — Bu odamning odati shu. Yuz yil asal bilan boqsangiz ham og'zidan shirin gap chiqmaydi».

Qizlar kattakon qayrag'och soyasida, hovuz labida o'tirib, tushlik qilishadi. Qayrag'och shoxlarida yuz-yuzlab chumchuqlar chirqillaydi. Qayoqdandir shamol kelib, hovuz yuzidagi mayda-mayda jilolar yelkasiga minib oladi.

Orqa tomondan mashina signali eshitaladi.

— Rais buva kelyaptilar! — deydi qaysidir qiz qo'ng'irokday ovoz bilan.

Baland bo'yli, qotma, ammo tetik rais ochiq chehra bilan hayqiradi:

— Hormanglar, qizlar!

Qizlar quvnoq salomlashishadi.

— Barakalla, qizlar! Yashanglar. Plan to'lgan kuni hammangizni Toshkeshta — tomoshaga olib boraman.

— Naq Toshkentning o'zigami? — deydi orqaroqda o'tirgan qizlardan biri ishonqiramay.

— Naq Toshkentning o'ziga!

— Panoramaga ham tushamizmi? Rais beg'araz qahqaha uradi:

— O'sha panoramaga tushamiz-da!

Rais yaxshi odam. Chindan ham har yili qizlarni bir-ikki marta shaharga — teatrga olib boradi.

— Qani, — deydi u hammaga bir-bir qarab. — Kim eng yaxshi ishlasa, o'shani kelin qilaman.

Xohlasa, mexanizatorlar kursiga jo'nataman.

Hovuzda kosasini yuvayotgan qop-qora qiz — E'tibor yelkasi osha o'girilib qarab, bijir-bijir qilib gapirib tashlaydi:

— O'zi bitta o'g'lingiz bor, qaysi birimizni kelin qilasiz. Uyam bo'lsa shaharda o'qiydi. Kim bilsin, hali bola-chaqasini boshlab keladimi.

Hamma qah-qah urib kuladi, rais ham...

... Yana o'sha paykallar, chanoqlar, paxtalar... Muyassar yana ishga sho'ng'ib ketadi... Qo'llari yana chanoqlar ustida o'ynaydi.

Oqshom shafag'i yuziga kul tortganida paykaldan chiqishadi. Muyassar uyga qaytishdan oldin kanal bo'yiga keladi: sigirga o't yulish kerak. Muyassarning yonginasida chigirtka nag'masini boshlaydi. Oromli sukunatni chuqurlashtirib, uzoq tinimsiz chirillaydi. Suv yuzida baliq sakraydi. Cho'lp etgan ovoz eshitaladiyu yana sukunat quyilib keladi. Allaqayoqdan uchib kelgan baliqchi qush suvga sho'ng'iydi. Shu ondayoq qiyqirib havoga ko'tariladi. Muyassar qirg'oqda o'sib yotgan barra maysalarni shart-shurt yulishga tushadi. Allanechuk qadrdon, mast qiluvchi ko'katlar isidan boshi aylanib ketadi. Suv yuzi qop-qorayib qoladi. Eng avval uyg'ongan shoshqaloq bir yulduzcha kanal suviga sho'ng'iydi. Goh jilolarda ko'milib ketadi, goh yana qaytib chiqadi. Orqa tomondan

mototsiklning gurillagan tovushi eshitaladi. Mototsikl sukunatni tilka-pora qilib yaqinlashadi-da, uning yonginasida taqqa to'xtaydi. — Yana kolxozning o'tini yulyapsanmi? Muyassar qayrilib qaramasdan o'q taniydi. O'sha — Shoqosim aka. U sekin boshini ko'tarib qaraydi. Tabelchi mototsiklining egaridan tushgisi kelmay, bir oyoqlab yerga tiralib turgan bo'ladi. Muyassar uning yuzini g'ira-shira qorong'ida aniq ko'rmasa ham, qovoqlari pir-pir uchib turganini payqaydi. U odam shunday o'zi: otdan tushsa ham, egardan tushgisi kelmaydi. Bir vaqtlar rais bo'lgan edi. Unda Muyassar qizaloq edi. Bir kuni sigiri paxtazorga tushib ketgani uchun Qoravoy taqachining to'qqiz yashar o'g'lini o'lar holatda do'pposlagan.

Shoqosim aka haliyam o'sha kunlarini qo'msaydi. Menga odamlarning dimoq-firog'i emas, puxta kerak, deydi. Muyassar bu safar ham olishib o'tirmay, qishloqqa qaytadi.

U endi o'choqqa olov yoqqanida eshikdan ola sigir mo'rab kirib keladi. Muyassar gullarni payhon qilib tashlamasin, deb darrov arqonlaydi. Kattakon sirli chelak yani iliq, serko'pik sutga to'ladi.

Muyassar buzoqchani yechib yuboradi. Taom pishgandan keyingina Muyassar qattiq to'liqqanini sezadi. Uch-to'rt jazni og'ziga soladi-yu, tovoqni berkitib qo'yadi. «Hali Alijon akam kelsa, birgalashib ovqatlanamiz». Lekin Alijon hali-beri qaytmasligini o'zi ham biladi. Terim kunlari shofyorlar kecha-kunduzning farqiga bormay qolishadi.

Guzar tomondan baland muzika ovozi yangraydi. «Klubda kino bo'lyapti, — deb o'ylaydi Muyassar jimgina quloq solib. — Qanaqa kino ekan?» U uyiga kirib, elektr yoqadi. Burchakdagi toshoynaga o'zini soladi. Qora qosh, qora ko'z, mo'jazgina qiz unga qarab jilmayib turadi. Birdan uning sho'xligi tutib ketadiyu o'zining aksini o'zi masxara qila boshlaydi. Tilining uchini chiqarib, boshini likillatib qo'yadi. Keyin mayin jilmayib, oyna tokchasidagi upani oladi. Upaga botirilgan paxtani yuziga yaqinlashtirishi bilan to'xtab qoladi. «Yana qo'lim yorilibdi», G'ozapoya tirnab tashlagan qo'llariga qaraydi. Tag'in jilmayib qo'yadi. Mana shu nozik, chayir barmoqlari, tiqmachoqday qo'llari bilan allaqachon o'ziga haykal bitgulik ishlar qilib qo'yganligi, bugun ham o'sha haykalga yana jilo bergani uning xayoliga ham kelmaydi. Keyin uxlab qolishdan cho'chib, yechinmasdan o'rniga cho'ziladi, kuta boshlaydi. Ana, ko'chadan mashina ovozi keldi. Muyassar ildam qaddini rostlab o'tirib oladi. Motor tovushi kuchaya-kuchaya yaqinlashadi-da, yana sekin-sekin uzokdashib ketadi. «Yo'q, Alijon akam emas, Idora tomonga o'tib ketdi-ku».

U shifta tikilib uzoq yotadi. Lekin endi motor ovozi kelmaydi. Itlar akillamaydi. Bedana ham sayramaydi. Qishloqni uyquning sukunat to'lqinlari o'z bag'riga oladi.

Faqat qaerdadir — uzoqda alla eshitaladi. Qaysidir ona o'z kichkintoyining boshida qo'shiq aytyapti. Muyassar shirin jilmayib qo'yadi. Mana, bir yildan keyinmi, ikki yildan keyinmi o'zi ham ona bo'ladi. O'shanda o'zi ham shunaqa sokin kechalarga jon kiritib alla aytadi. Bir vaqtlar ayasi kenja ukasiga alla aytayotganida quloq solib o'rganib olgan. Uyqu uning ham kipriklarini aldab-aldab qovushtirib ketadi. Muyassar toliqqan oyoq-qo'llarini yozgancha, dong qotib uxlab qoladi.

U tush ko'radi. Tushida jajjigina qizaloq emish. O'rikning shoxiga arqon tashlab arg'imchoq uchayotganmish. O'rik qiyg'os gullaganmish. Arg'imchoq har silkinganida uning boshidan bir dunyo gul sochilarmish. Arg'imchoq borgan sayin qatiroq lopillarmish. U borgan sayin balandga, osmonfalakka chiqib tusharmish. Yer ham, osmon ham, arg'imchoqning arqoni ham — hammayoq gul emish. Oqish pushtigul emish. U xandon urib, qiyqirib-qiyqirib kularmish. Ko'zlaridan yosh chiqib ketarmish... U tush ko'radi. Ammo oy fonusining piligini pasaytira boshlaydi. Kunchiqar tomonda osmon sutday oqish rangga kiradi. Yangi kun boshlanadi.

DEHQONNING BIR TUNI⁴¹

Ikkinchi hikoya

Bundan yigirma ikki yil avval «Guliston» jurnalida «Dehqonning bir kuni» degan hikoya bosilgan edi. Unda oddiy paxtakor oilaning bir kunlik hayoti tasvirlangan...

Hikoya rus tilida «Literaturnaya Rossiya» haftaligida chiqdi, to'plamlarga kirdi, talay qardosh xalqlar tillariga, chet el tillariga o'girildi. Oradan shuncha fursat o'tgach, eski do'stlarim, qariyb o'z tengqurlarim — Muyassar va Alijonni qo'msayverdim... Mana, ular bilan tag'in uchrashdik. (Muallif, 1989 yil, mart.) Yo-yo-tishibdi... O'ng tomonda Alijon. Chap tomonda Muyassar... Yonboshida to'rt yashar Doniyor... Uy ichi salqin, cho'yan pechkaning g'ira qopqog'idan tushayotgan nur devorga qizg'ish chiziq tortgan. Tashqari oydin shekilli, deraza yorug'. Eski toshoyna xira yiltiraydi. Toshoyna burchagiga qistirib qo'yilgan rasm oqarib ko'rinadi. Lekin Muyassar uni ravshan tasavvur qiladi: Valijonning surati. Uni Halimaxon chizgan. Bo'yoq qalam bilan... O'lmasidan yarim yil ilgari...

Tshoyna tokchasidagi soat shoshilinch chiqillaydi. (Valijon Novgorod tomonlardan olib kelgan batareyali soat)... Alijon yonboshiga ag'darilib «imm» deb qo'yadi. «Tag'in beli og'riyapti», deb o'ylaydi Muyassar yuragi achishib. Ammo eridan hol so'rashga botinmaydi: «Uyg'onib ketmasin». Yetti yil bo'ldi. Tuppa-tuzuk mashinasini haydab yurgan odam ayni qish chillasi «pichan obkelmasak bo'lmaydi», deb toqqa ketdi-yu, bir haftada shu dardni orttirib keldi. Bormasa bo'lmasdiyam-da... Fermaning mollari ochlikdan bo'kirib yotgan bo'lsa... Kolxozning o'zi beda sepmasa...

Alijon avvaliga sezdimadi. Ichidan Muyassarning jun ro'molini beliga bog'lab yuraverdi. Keyin yotib qoldi. Qimir etsa joni chiqib ketayotgandek ingraydi. O'shanda «yorildi». Xashak olib qaytishayotganda qor ko'chib, ikki kecha tog'da qolib ketishibdi...

Uy ichi salqin... Cho'yan pechka eshigidan tushayotgan chiziq ojiz miltiraydi. Valijonning soati shoshqin chiqillaydi. Muyassarni xayol olib qochadi. Valijon sog'mikin... U yoqlarda sovuq qattiq bo'larmish. Bugun «Vremya»da aytdi. Moskvada 28—33 daraja... Novgorod Moskvaga yaqin emish. Valijon aytgan. Doniyor quv-quv yo'taladi. Oyoq-qo'lini tipirlatib, ustidagi ko'rpani ochib tashlaydi.

— Aya-a-a! — deydi yig'lamsirab.

Muyassar tirsagiga tayanib, bolaning ustiga ko'rpa tortadi. Peshonasiga kaftini bosib ko'radi.

Хайрият, isitmasi yo'q.

— Uxla, bolam, uxla, — deydi sekin.

— Buning yana yo'talyapti-ku, onasi...

— Sizniyam uyg'otib yubordimi? — Muyassar eriga achinib qaraydi. — Sho'x-da, boya Salimangiz aytdi: pechkada qor eritib, pishillatibdi... Uxlang. Muyassar erining uyqusini o'chirib yuborishdan qo'rqib, qimir etmay yotadi. Soat chiqillaydi. U tag'in Valijonini o'ylaydi. Mo'min bola. Otasiga tortgan. O'nni bitirib institutga kirmoqchi edi.

Yig'lamoqdan beri bo'lib qaytib keldi. Domla aytganmish. «Ekonomist bo'lishni orzu qiladigan odam avval familiyasini to'g'ri yozishni o'rganadi, yigitcha! Qishlog'ingizga borib paxta teravering!»

2. ^{41 41} Ўткир Ҳошимов “Ҳикоялар” Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент – 2002; 2-10-betlar

Muyassar kuydi. Otasi kuldi: «Biz tomonlarda paxta terishdan boshqani o'rgatmaydi, demadingmi, o'g'lim... Mayli, parvo qilma, hamma olim bo'lib ketsa, podani kim boqadi». Valijon poda boqmadi-yu, tag'in paxta terdi.

Keyin... Boshqa gap chiqib qoldi. Yangi rais (avvalgi Rais buva qamalib ketdi, uch yil bo'ldi: paxtani qo'shib yozgan ekan) majlis qildi. Xo'p aqlli gaplar aytdi. (Aytadiyam-da, yosh, o'qimishli).

«Ko'rib turibsizlar, biz tomonlarda tug'ilish ko'payib ketyapti, — dedi, — har bitta oilaga o'n besh notixdan tomorqani qaerdan topamiz, paxtaga yer yetmayapti-ku»: Xullas, ayon bo'ldiki, Rossiyaning noqoratuproq yerlari «o'tyurak» dyohqonlarni, iloji bo'lsa, yoshlarni kutib yotgan emish.

Valijon tushmagur shu gapni eshitdi-yu, patagiga qurt tushib qoddi. Muyassar «ketma», deb uvvalo yalinsa ham ko'nmedi. «Tushunsangiz-chi, aya, o'z holimga qo'ying, yosh bola emasman», dedi. Dadasi yonini oldi (har qalay erkak-da). «Bolani o'z holiga qo'y, onasi, rais bir nimani bilmasa gapirmaydi», dedi.

Valijon bir yilchadan keyin kech kuzakda to'satdan kelib qoldi. Otpuskaga. Qarang, Muyassar o'g'lini tanimay qolsa deng... Soqol qo'ygan... Boshida telpak... Ralatiroq bo'lib qolgan. Kamgapmi-ey, odamovimi-ey...

Ikki marta singlisining mozoriga borib keldi-da, tag'in yo'lga o'tlanib qoldi. O'sha kuni dadasiga dilini yordi: «Xo'roz hamma yerda bir xil qichqirarkan, hech kim bizni quchoq ochib kutib olgani yo'q.

O'zlarining turish-turmushi yaxshi bo'lsa, qishlog'ini tashlab qocharmidi, jonimga tegdi, bahorda qaytib kelaman», dedi. Otasi gapini ma'qulladi: «Tentirab yurma begona yurtlarda! Kelaver, ochingdan o'lsang men kafil».

— Uyingda is bormi, onasi?

Xayol surib yotgan Muyassar eri tomon ilkis o'giriladi.

— Uxlamadingizmi?.. O'lsin... ko'mirxonaga kirsam, yakkash kukun qopti. — U bir zum jim yotadida, so'raydi.

— Poezd biletini ertaga olasizmi?

— Olaman, — Alijon negadir xo'rsindi. — Buyam bir qop g'alva shekilli. Avval Moskvaga borilarkan, undan Tbilisiga, undan Kutaisiga...

— Mayli, dadasi. Ko'rmagan joylarni ko'rib kelasiz.

Jimib qolishadi. Yangi rais Alijonning belidagi bodini davolash uchun Kavkaz tomondagi allaqaysi «kurot»ga putyovka beribdi.

— Joningizdan aylansin, — deydi Muyassar osoyishta ohangda. — Qiynalib yurasizmi?

Tag'in jimlik cho'kadi. Allaqaerda it akillaydi.

— Ko'mir olish kerak, — dedi Alijon bo'g'iq ovozd. — Qishning keti ko'rinmayapti.

— O'lsin, anqoning urug'i-ku. — Kechagi voqea da'atan Muyassarning esiga tushadi. — Magazinga qand kelgan ekan. Tumonat odam... Qarasam, Tursunoy xolayam ochiritda turibdi.

«Erimda gunoh yo'q, majbur qilishgan», deydi. Adoyi tamom bo'pti.

— Rais buva insofli edi, — Alijon tag'in xo'rsinadi. — Xalqqa qayishardi.

— O'g'lini qarg'adi, — deydi Muyassar kuyinib. — Toshkentda o'qigan o'g'li bor edi-ku... hozir Qo'qonda ishlayotgan ekan. Sudmishmiej, advokatmi... Tursunoy xola «otangni qamoqdan chiqarib ber, shu odamning pushtikamaridan bo'lgansan-ku, bolam», deb yig'lasa, o'g'li ko'nabdi. «Pripiska qilganlarga chora yo'q, aya», dermish.

— Ungayam osonmas, — deydi Alijon xomushlik bilan. — Nima qilsin, davlatning odami.
— Ularnikidayam ko‘mir ado bo‘lgan ekan, — deydi Muyassar Tursunoy xolaning gapini eslab. — Shotursunga bir mashina ko‘mir obkeb bering, baraka topkur, rahmatli otangiz rais buvaning qadrdoni edi, desa Shotursun jerkib beribdi: «Ikki yuzdan kamiga bo‘lmaydi, men yetimxonaning direktori emasman. Rais buva ko‘mib ketgan tillalarni chiqaring-da, mundoq», dyopti.

— Otasiga o‘xshagan errayim-da, bu bola! — Alijon jahl bilan to‘ng‘illaydi. — Shoqosim aka ham shunaqa xudobexabar odam edi.

Muyassar qovog‘i muttasil uchib turadigan Shoqosim akani, hozir stantsiyadagi ko‘mir iskaladda ishlaydigan Shotursunni eslab, ko‘ngli g‘ash tortadi, rais buvaning xotinigaki shundoq degan bo‘lsa, boshqalarga ikki yuz ellikdan kamiga ko‘nmaydi.

Tursunoy xolaning yig‘lab aytgan gaplari tag‘in xayoliga jonlanadi: «Sizga yolg‘on, Xudoga chin, jon qizim, Cholim bir xil raislarga o‘xshab sandiq-sandiq pul yig‘madi. Boshqalardan nimamiz ortiq, mana, bir paqir ko‘mirga zor bo‘lib o‘tiribman...»

— Rais buva vaqtida pensiyaga chiqib ketsa shu ishlarga aralashmasmidi, — deydi Muyassar o‘ziga o‘zi gapirib.

— A? — Alijon endi mudray boshlagan shekilli, qayta so‘raydi. — Kim deysan?

— Rais buvani aytaman-da.

— Undayam baribir qamalardi...

Muyassar astoydil ajablanadi:

— Nega endi? O‘ziga to‘g‘ri bo‘lsa. Birovga og‘zi tegmasa, tili tegmasa...

— Planni bajarmasa bo‘lmasdi-da, onasi, — deydi Alijon ishonch bilan. — U zamonlarda bajarmasa qamalardi. Endi bajargani uchun qamaypti.

«O‘zing panohingda asra, Xudo!», deydi Muyassar xayolan. Dili yorishadi. Yaxshiyam eri raismi, brigadirmi bo‘lmagani... Ana, qanchasi qamoqda yotibdi.

Narigi xonadan ingroq tovush keladi.

— Qaysi biri? — deydi Alijon xavotir bilan.

— Salimangiz... — Muyassar narigi xonada yotgan uch qizining qaysi biri tushida alahsiragani-yu, qaysi biri ingraganini aniq biladi.

— Yana bannisaga yotqizsakmikan, — deydi Alijon. — Jigar og‘rig‘i qo‘zg‘adi shekilli. Halimaga o‘xshab...

— Nafasingizni issiq qiling! — deydi Muyassar beozor jerkib.

Erining ko‘nglidan o‘tayotganlarni biladi. O‘zining ham ko‘z o‘ngiga lop etib Halimaxon keladi. Valijondan keyin tuqqan qizi. O‘ziyam bu dunyoga sig‘adigan qiz emasdi-da. Sochi yer supurardi. Kiprigi yuziga tushardi. Otasi ham hayron: kimga tortgan bu qiz? Chap qo‘llab rasm chizsa (chapaqay edi), odamning aqli shoshardi. Shunaqa mehnatkash, shunaqa chaqqon. Non yopadi, sigir sog‘adi, pillaga qaraydi, dalaga chiqib chopiq qiladi, yuz kilolab paxta teradi. Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi, degan gap rost ekan. O‘n oltiga to‘lib-to‘lmasdan turnaqator sovchilar qatnasa deng...

Bo‘lmasa to‘qqizinchiga endi ko‘chgan qiz... Bir kuni Muyassar ishdan kelsa, Halimaxon akasini ayvon burchagidagi kursiga o‘tqizib qo‘yib, albomga rasmini chizyapti. Qo‘lida bo‘yoqqalam. «E, buningizga ayting, aya, xit qilib yubordi-ku, odamni, — dedi Valijon do‘rillab. — Nima, men vistavkaga qo‘yilgan echkimanmi? Ikki soatdan beri qoqqan qoziqdek o‘tiribman. E, bor-e!» — Valijon qo‘lini paxsa qilib o‘rnidan turib ketayotgan edi, Halimaxon muloyim jilmaydi. «Qirqiga chidadingiz, qirq birigayam chidang-da, akajon! Besh minut qoldi».

Muyassar qizi chizgan rasmga bunday qarasa... Yo tavba! O'g'li shunaqa katta yigit bo'p qoptimi? Mo'ylovi sabza urgan... Ko'zlarida, qop-qora ko'zlarida allanechuk sho'xlik... Hatto iyagidagi lusunbuzar ham yarashib tushgan.

... Muyassar o'sha kungi gapi uchun hanuz ich-etini yeydi. Nega baqirdi qiziga? «Sen ahmoqqa qachon aql kiradi, qiz o'lgur! Ovqatga unnash o'rniga... Akang bu yil o'nni bitiradi, ahmoq, nima qilasan vaqtini olib? Yig'ishtir qalam-palamingni!» Bilsa edi, olti oy o'tmay g'unchadek qizini tuproqqa topshirishini... Halimaxon dori sepilgan dalada ishlayveribdi jigari ezilib adoyi-tamom bo'pti-yu, ih demabdi. O'zi-chi? «Ayajon, qornim og'riyapti, ko'nglim behuzur bo'lyapti», desa: «Yoqmasroq narsa yegandirsan-da, qatiq ichsang bosiladi», deb qo'ya qolibdi... Bannisaga olib borishganida kasali o'tib ketgan ekan... Yo'lakka, eshik tagiga yotqizishdi.

Muyassar erini bunaqa alpozda birinchi ko'rishi edi. Avval do'xtirlarga yalindi: «Jon akalar, qancha olsangiz oling, qizimni tuzating», dedi. Birov quloq solsa qani! Hammayoq oh-voh, hammayoqda rangi za'faron kasallar. Shunda Alijonning ko'zi g'azabdan yonib ketdi. Qiyomat qo'pdi. «Kattang kim? — dedi o'dag'aylab. — Mening qizim xolasining chorbog'ida ishlab sariq bo'lgani yo'q. Paxtada ketmon chopib shu dardga yo'liqdi!

Tuzatasan! Tuzatmasang, onangni Uchqo'rg'ondan ko'rsataman!»

Rangi zahil, qiltiriq do'xtirning gapi Muyassarning esidan chiqmaydi: «Menga nima deysiz, aka! Bola bog'chasiniyam kasalxonaga bo'shatib bergan bo'lsak, ko'rib turibsiz, koridorgacha to'lib ketdi. Boring, o'sha kattalarning oldiga!» Alijon «kattalarning oldiga bormadi. Boradigan ahvolda emasdi. Bola bola ekan-da. Valijon singlisi bilan ko'p g'ijillashardi. Goh ruchka talashadi, goh daftar... Ammo Halimaxonning o'ligini bannisadan olib kelishganida yerga muk tushib shunaqa yig'ladi, shunaqa yig'ladi... Muyassarning mijjalariga yosh qalqiydi. Tomog'iga yig'i tiqilib, dimog'i achishadi. Erini bezovta qilishdan qo'rqib, labini tishlaydi.

— Ha, onasi? — deydi eri xavotirlanib.

— O'zim... — Muyassar hiqillab, burnini tortadi. — Uxlang... Charchagansiz.

— Qo'y, onasi... — Alijon dag'al qo'li bilan uning boshini silaydi. — Bahorda o'g'ling keladi. Nasib etsa to'y qilamiz... Nevara ko'rasan...

Ajab, bir vaqtlar kelinlik paytida (qarang, shungayam yigirma ikki yil bo'pti) erining qo'li bexosdan tegib ketsa, badani jimirlashib ketardi. Endi bo'lsa eri boshini silasa yosh boladek orom topadi. Nima bu? O'ziyam tushunmaydi.

Narigi xonada tag'in Salima ingraydi. Muyassarning ko'ngliga g'ul-g'ula tushadi. Balki yana bannisaga yotqizish kerakdir. Yo'-o'q, bittasidan ayrilgani yetadi! O't tushsin, o'sha paxtalariga! Sutdan og'zi kuygan qatinqiyam puflab icharkan. Bultur kuzda Salima «ko'nglim ayniyapti, biqinim sanchib og'riydi» deganida er-xotin yugurgilab qolishdi.

Xayriyat, bu safar vaqtida oldini olishdi. Haliyam asorati qolgan shekilli, bu sariq o'lgurning... Alijon inqillab o'rnidan qo'zg'aladi.

— Ha? — deydi Muyassar tashvishlanib. — Belingiz...

Alijon uh tortadi. Yotgan joyida cho'zilib ti-mirskilanady. Namat ustidagi sigaret bilan gugurtni oladi. — Shu odatingiz qolmadi-da, dadasi, — deydi Muyassar dashnom berib. — Bola yotibdi demaysiz. Alijon indamay gugurt chizadi. Chakkasidagi oqargan sochlari, ajin tushgan peshonasi bir lahza yorishib ketadi. «Umr ham o'tdi, — deb o'ylaydi Muyassar. — Ikkovimiz ham o'tin bo'ldik. Qiziq, ko'nglida na alam, na og'riq sezadi. Bu gap shunchaki lip etib xayolidan kechadi. — «Dunyoning ishlari shu ekan». ... Oy botgan shekilli, derazadan tushayotgan nur xiralashadi. Hovli tomonda qo'y ma'raydi. (Valijonning to'yiga atab boqilayotgan qo'y).

— Onasi, — deydi Alijon sigaret kulini yonboshidagi piyolaga chertib. — O'g'ling kelguncha uyni sal epaqaga keltirib qo'ysakmidi... Yaxshi niyat bilan hovli etagiga bir uy, bir ayvon solishgan. Tomini yopishdiyu u yog'iga qo'l qisqalik qilib qoldi. Valijon u yoqda bo'lsa, hali qancha ish bor. Eshik-deraza o'rnatish, somon suvoq, oq suvoq, bo'yoq... Eh-he!

Ajab, Alijon uning dilidan o'tganini darrov sezadi.

— Qo'yaver, onasi, — deydi yupatib, — musulmonchilik — astachilik. Baxtimizga bolalar sog' bo'lsin.

— Shunday deb sigaretni piyolaga bosib o'chiradi. — Uxla, onasi, charchagansan.

Toshoyna yanayam xiraroq yaltiraydi. Soat allalovchi ohangda chiqillayotganga o'xshaydi. Borabora soat ovozi jimlik qo'yniga singib ketadi. Muyassarni uyqu elitadi. Shunda eri yelkasiga ohista turtganini sezib norozilik bilan ko'zini ochadi.

— Nima deysiz? — deydi ozorlanib.

— Onasi... — Alijon yo'talib qo'yadi. — O'ylab qaragam, o'shayoq menga to'g'ri kelmas ekan. Muyassar uyqusirab yaxshi tushunmaydi:

— Qanaqa o'shayoq?

— O'sha-da! Xaltubami, Maltubami... Borish yuz so'm... Kelish yuz so'm... Undan ko'ra ko'mir olaylik... Valijoning kelguncha uyni suvokdan chiqarib qo'yaylik.

Muyassarning uyqusi bir zumda o'chadi.

— Esingiz joyidami, dadasi! — deydi astoydil koyib. — Yetti yil kutib, endi putyovka olgan bo'lsangiz, yarimjon bo'lib qolgan bo'lsangiz... Siz ham umringizda bir marta...

— Ke, qo'y, onasi! — Alijon tag'in uning boshini silaydi. — Oltiariq tomonda issiq suv bormish. Shunga uch marta tushsam, otdek bo'lib ketaman. Mana ko'rasan.

Eri shu qadar ishonch bilan gapirdiki, Muyassar ikkilanib qoldi.

— Qandoq bo'larkin, dadasi, — deydi bo'shshib. — Labzdan qaytsangiz...

— Uxla, — deydi Alijon allanechuk xotirjamlik bilan. Muyassar tushunadi. Bu — erining qat'iy qarori. U bir lahza alag'da bo'lib yotadi. Keyin uyqu uning kipriklarini aldab-suldab qovushtiradi. Qancha fursat o'tganini bilmaydi-yu, ayvonda chiroq yonganini his etadi. «Salima turdi, — deb o'ylaydi uyqu aralash. — Xo'p mehnatkash chiqdi-da, shu qizim.

Umridan baraka tonsin». Paqir bandi daranglaganini ham eshitadi. «Turish kerak, xamir ko'pchib ketgandir... Salima sigir sog'guncha non zuvalab qo'ymasam bo'lmas». Uyg'onmoqchi bo'ladi-yu, ko'zini ocholmaydi. Tush ko'radi... Bahor emish. O'rik gullaganmish. Qizaloq emish. O'rik shoxiga ilingan arg'imchoqda uchayotganmish. Arg'imchoq silkingan sayin boshiga duv-duv gul yog'ilarmish. Oq, pushti gullar... Shunda... Halimaxon paydo bo'pti. Sochlari yer supuradigan, kiprigi yuziga tushadigan qizi Halimaxon... «Kel, qizim, kelaqol! — dermish u qo'l cho'zib. Qizini quchog'iga olibdiyu uchaveribdi-uchaveribdi. Halimaxon uning pinjiga kirib, «ayajon, ayajon» dermish. Arg'imchoq borgan sayin biland havolanarmish... Ona-bola bir-birini quchokdab osmon-falakka uchib ketishayotganmish. Negadir Muyassarning yig'lagisi kelarmish. U tush ko'radi. Oy fonusi allaqachon o'chgan. Kunchiqar tomonda esa ko'kimtir qor bosgan tog'lar ortida osmon yorishadi. Hovli etagida pastak bostirmada «pov-pov» degan ovoz eshitaladi. Salima sigir sog'ayapti. Sog'ib bo'lib, qoziq atrofida betoqat aylanayotgan buzoqchani yechib yuboradi, keyin tandirga o't qalaydi... Non yopadi... Shirchoy qiladi... Yangi kun boshlanadi...⁴²

3. ⁴² Ўткир Ҳошимов “Ҳикоялар” Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент – 2002; 2-10-betlar

INDEPENDENT WORK:

1. The main problems in the translation of Uzbek stories into English.
2. The adequacy as a criterion in translation of Uzbek stories into English.

CORE LITERATURE:

1. Barkhudarov L.S. Language and Translation. M. 1975.
2. Catford I.C. A Linguistic theory of translation. L.N/Y.
3. Shvaytser A.D. Translation and Linguistics. M.1973.
4. Levitskaya T.R, Fiterman A.M. The problems of translation on the material of the contemporary English language. M.1974.

ADDITIONAL LITERATURE:

1. Nida.E. Towards a science of translation. Leiden. 1964.
2. Roger. N. Bell. Translation and translating . Theory and practice. London, New York. 1995.
3. Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. T. 1978.
4. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari. T. 1983.

TECHNOLOGICAL MAP OF THE MODULE

MODULE 8. The translation of Uzbek texts in different styles into English

Course: 1; Semester 2;

Time: 160 min.

Aim: To improve reading, listening, writing and speaking

Activity	Objectives	Procedure	Duration	Mode of Interaction	Methodics	Material
Pre-activity	-to get students to think about the topic -to show them two pictures and ask them to tell the difference the two	-discussion of the pictures -practicing the pronunciations of new words from the text. -referring to transcription -introducing the new vocabulary words	40 min.	group work	Think-Pair-Share With students seated in teams of 4, have them number them from 1 to 4. Announce a discussion topic or problem to solve. (Example: What are the SP of the given	- Book: Listening Extra -black board -posting the pictures on the board

					<p>texts? How could we define them?) Give students at least 10 seconds of think time to think of their own answer. Using student numbers, announce discussion partners. (Example: For this discussion, Student #1 and #2 will be partners. At the same time, Student #3 and #4 will talk over their ideas.) Ask students to PAIR with their partner to discuss the topic or solution. Finally, randomly call on a few students to SHARE their ideas with the class</p>	
While-activity	-to introduce the topic	-read, translate and analyze the text -working on the exercises: translating the following sentences; fill in the blanks	80 min.	-group work -pair work -individual work		-handouts -black board - dictionaries

		with suitable words; matching the definition; -working on the vocabulary notes				
Post-activity	-to sum up the topic -to give a brief statement of the topic	-answering the questions -to have a discussion about stylistic problems -characterize the situation -give an example to show how man is affecting the ecology	40 min.	group work		-handouts -black board

THE TECHNOLOGY OF THE MODULE 8

- I. Translate the texts and write out the new vocabulary.
- II. Discuss the stylistical peculiarities of the given texts and outline the general idea;
- III. Work out the set structures vastly used in the texts;

Theme	The translation of Uzbek texts in different styles into English
Duration	6 hours
Goals and tasks	To found the knowledge skills of the students of the translation theory and practice department; Introduce the students to the English fairytale's style; Work-out the set-structures for the fairytales translation;
The content of educational process	To introduce the new information on the given topic by means of practical material. To solve debatable problems during practical activities.
The technology of educational process	Method: interactive method. Form: group discussion. Facilities: getting into the role of native speaker. It is necessary to think and answer both in English and Uzbek. Control: Teacher listens carefully and sums up, taking into account the activity of each student.
Expectations	The achieved results: by means of this method teacher enables the students to think freely and to express their point of view. Student develops logical thinking and orator abilities.
Perspective (analysis, correction)	Teacher: to use new pedagogical technologies at other lessons. Student: to develop a discussion through other methods (cluster, boomerang), to write a report.

1. O'zbekiston sobiq ittifoq hududida iqtisodiy integrasiyaning rivojlanishini etibor bilan kuzatishda davom etadi, biroq hozircha Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi yoki Bojxona ittifoqiga kirishni o'ziga foydali deb hisoblamaydi, deb aytdi O'zbekiston

tashqi aloqalar, investisiyalar va savdo vaziri o'rinbosari SHavkat To'laganov. Bu haqda RIA "Novosti" axborot agentligi xabar bermoqda.

"O'zbekiston birinchi navbatda bizning manfaatlarni hisobga olgan holda u yoki bu integrasion tashkilotlar, tuzilmalar azosi hisoblanadi. Birinchi asosiy ustuvor vazifa biz O'zbekistonda qaror qabul qilinishiga tasir qiladigan biror tuzilmaga ega bo'lmasligimizdir. Biz erkin savdo hududi, MDH azosi hisoblanamiz. Bu barcha kelishuvlar bizga normal savdo va boshqa munosabatlarni olib borishga imkon beradi. Bizning mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganishlar Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi yoki Bojxona ittifoqida azolik O'zbekistonga ustunliklar bermasligi yoki aksincha, qandaydir pozisiyalar bo'yicha bizni cheklashi mumkinligini ko'rsatdi", deb tushuntirdi To'laganov.

"Bu integrasion tuzilmalarning rivojlanishini etibor bilan kuzatamiz. Agar biz uchun iqtisodiy tomondan hech qanday qiyinchiliklar yoki cheklashlar bo'lmaydi, deb hisoblasak, unda bu tuzilmalarga kirish masalasini ko'rib chiqamiz. Biroq bugungi kunda bizda bu borada aniq yo'nalish, qaror bor va biz hozircha qandaydir yangi integrasion tuzilmalarga kirishni rejalashtirmayapmiz", deb qo'shimcha qildi To'laganov.

To'laganovning fikricha, bu siyosat 4 dekabrda bo'lib o'tadigan O'zbekiston prezidenti saylovlaridan keyin ham davom ettiriladi.

"Prezidentlikka nomzodlar tashqi siyosat, tashqi iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalish bizning birinchi prezidentimiz tomonidan ko'rsatilgan yo'nalishlarga asoslanishini aytib o'tdilar", deb takidlab o'tdi To'laganov.

2. O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotida oxirgi vaqtda inqiroz tufayli xorijiy pul o'tkazmalari ulushi 5 foizdan oshmayapti, deb malum qildi O'zbekiston iqtisodiyot vaziri o'rinbosari Shuhrat Ismoilov matbuot-anjumanida. Bu haqda RIA "Novosti" axborot agentligi xabar bermoqda.

"Men buni asosiy tashkil etuvchi ko'rsatkich deb ayta olmayman, u YAIMning 5 foizidan oshmayapti", deb aytdi Ismoilov hozirda mamlakat iqtisodiyotida xorijdan mehnat muhojirlari yuborayotgan pul o'tkazmalari qanday ulushni tashkil qilayotgani haqidagi savolga javoban.

Ismoilovning aytishicha, oxirgi vaqtda bu ulush boshqa davlatlardagi inqirozli vaziyatlar sababli qisqarmoqda, biroq O'zbekiston hukumati bu salbiy jihatni yo'qqa chiqarishga urinmoqda. "Bu holatning iqtisodiyot ahvoliga salbiy tasiri mavjud. Bunday salbiy tasirlarni engib o'tish maqsadida O'zbekistonda aholini, birinchi navbatda ortga qaytayotgan va bu erda – O'zbekistonda ish izlashga majbur bo'layotgan mehnat muhojirlarini bandlik bilan taminlash bo'yicha dastur qabul qilingan. Har yili bu dastur bo'yicha O'zbekistonda 200-300 ming yangi ish o'rne tashkil etiladi", deb aytdi Ismoilov.

O'zbekistonga valyuta kelishining kamayishi iqtisodiyotning eksportga qaratilgan tarmoqlarini rivojlantirish evaziga qoplanmoqda.

"Pul o'tkazmalari nuqtai nazaridan, pul o'tkazmalari hajmining qisqarishiga qaramasdan, shu jumladan Rossiyadan, biz qandaydir salbiy effektlarni, birinchi navbatda, eksport oshayotgani sababli kuzatmayapmiz. O'zbekiston eksporti hajmi ijobiy trendga ega", deb takidlab o'tdi Ismoilov.

Ismoilov shuningdek yangi ishlab chiqarishlar, ish o'rinlari yaratish bo'yicha choralar bu jarayonni tekislashga imkon berishini qo'shimcha qilib o'tdi.

3. O'zbekiston mudofaa vaziri, general-polkovnik Qobul Berdievning bayonot berishicha, Rossiya O'zbekiston uchun asosiy strategik hamkor hisoblanadi. U rossiyalik hamkasbi Sergey SHoygu bilan uchrashuvida shunday fikrni bildirgan.

"Bizni Rossiya bilan juda ko'p narsa bog'lab turadi. Aytish mumkinki, bog'lab turadi emas, balki biz qandaydir bo'linmaganmiz. Balki, o'zaro hamkorligimiz unchalik ham faol bo'lmagan davrlar bo'lgandir, biroq, biz har doim Rossiya bilan birgamiz, Rossiya biz uchun asosiy strategik hamkordir", — degan Berdiev.

U shuningdek, o'zbek ofiserlari va kursantlariga Rossiya harbiy o'quv bilim yurtlarida talim berilishining qayta boshlanishi munosabati bilan ham hamkasbiga minnatdorchilik bildirgan. O'quv jarayonlariga 2012 yilda barham berilgan edi.

O'zbekiston va Rossiya mudofaa vazirlarining uchrashuvida ikki davlat o'rtasida harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha shartnoma imzolangani haqida avvalroq xabar qilingan edi.

4. Donald Tramp mamuriyatida Eleyn Chao Transport vaziri lavozimini egallaydi. The Guardian xabariga ko'ra, 29 noyabr kuni Trampning o'zi shunday tanlovni amalga oshirgan.

Trampning qayd etishicha, Chaoning etakchilik qobiliyatlari va tajribasi transport infratuzilmasini rivojlantirishda yordam beradi.

21 noyabr kuni Tramp va Chao xonim Nyu-Yorkdagi Trump Tower binosi hududida uchrashgan, ularning suhbat 2 soat davom etgandi.

Eleyn Lan Chao 63 yoshda bo'lib, u Tayvanda xitoylik muhojirlar oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi Eleyn 8 yoshdaligida AQSHga ko'chib kelishgan. U siyosatchi bo'lguniga qadar Citicorp va Bank of America muassasalarida faoliyat yuritgan. 1980-yillar oxirida u respublikachi prezidentlar mamuriyatida muhim lavozimlarni egallagan. 1993 yilda u kentukkilik senator Mitch MakKonnellga turmushga chiqqan (hozirda AQSH Kongressi Senatida respublikachilar etakchisi).

Chao xonim 1989-1991 yillarda transport vaziri, 2001-2009 yillarda — Mehnat vaziri (Jorj Bush prezidentligi davri) bo'lgan. U kelib chiqishi osiyolik bo'lganlar orasida AQSH Vazirlar mahkamasida o'rin egallagan birinchi siyosatchi hisoblanadi.

29 noyabr kuni AQSH parlamentining Vakillar palatasi azosi Lu Barletta malum qildiki, shu kuni Donald Tramp u bilan uni AQSH Mehnat vaziri etib tayinlash masalasini muhokama etgandi. Undan oldinroq, aynan u Transport vaziri etib tayinlanishi haqida xabarlar berilgandi.

18 noyabr kuni AQSHning yangi saylangan prezidenti o'z mamuriyatidagi muhim lavozimlar uchun nomzodlarni belgilab olgani malum bo'lgandi. Unga ko'ra, alabamalik senator Jeff Seshns bosh prokuror, kanzaslik kongressmen Mayk Pompeo Markaziy razvedka boshqarmasi direktori bo'lishi aytilgan.

Hozirda AQSH Davlat kotibi va Mudofaa vaziri bo'lib turgan Jon Kerri va Eshton Karter o'rniga keladigan amaldorlar nomi aniqlab olinmagan.⁴³

OAV bergan malumotlarga ko'ra, AQSH Davlat kotibligiga Massachusets shtatining sobiq gubernatori Mitt Romni, Nyu-Yorkning sobiq meri Rudolf Juliani, Janubiy Karolina shtati gubernatori Nikki Xeyli, AQSHning BMT qoshidagi sobiq maxsus vakili Jon Bolton kabi nomlar davogarlik qilmoqda.⁴⁴

www.usa-gov.uz⁴³

⁴⁴ www.kun.uz/jahon /yangiliklari/ijtimoiy-hayot

Pentagonning yangi rahbari bo'lish imkoniyatlari esa Dengiz piyodalari korpusining istefodagi generali Jeyms Mattis va Nyu-Hempshir shtatidan bo'lgan senator Kelli Eyottda mavjud. Qo'shma shtatlarda 8 noyabr kuni prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Unda Respublikachilar partiyasi nomzodi Donald Tramp g'olib chiqdi. U 2017 yilning 20 yanvarida inaugurasiya marosimidan keyin lavozimiga rasman kirishadi.

AQSH vazirlar mahkamasi Amerika hukumatidagi ijro etuvchi organlarning yuqori martabali amaldorlaridan tuziladi. Bunday tuzilmani mamlakatning ilk prezidenti Jorj Vashington davlatni boshqarishda maslahatlar olish uchun tuzgandi.

5. 2016 yil Venesuelada inflyasiya darajasi 720 foizni tashkil etmoqda. Shu bois mahalliy do'konlarda pullarni sanab olishda tarozilardan foydalanishmoqda.

Ayni damda mamlakat milliy valyutasining eng yirik kupyurasi qora bozorda 5 AQSH sentiga teng. Bir bolivar uch tiyindan sal yuqori qiymatda.

Mamlakatda inflyasiya muammosi shu darajaga etdiki, mahalliy aholi do'konlarga pullarini ryukzak yoki sumkalarda olib borishmoqda.

Qimmat pishloq sotuvchi mahalliy savdogar Bloomberg agentligiga so'zlab berishicha, u pullarni hisoblash uchun pishloq tortiladigan tarozidan foydalanadi.

Giperinflyasiya, shuningdek, bankomatlarni ham ishdan chiqargan. Chunki ularni har uch soatda to'ldirib turishga to'g'ri kelmoqda. Ularning ayrimlari hatto ishdan chiqqan.

Mamlakatdagi og'ir vaziyat tufayli elektron to'lov tizimi ommalashdi, biroq kichik biznes vakillari plastik kartalarni qabul qilishni istashmayapti. Shu bois mazkur texnologiyani joriy etish darajasi pastligicha qolmoqda.

6. Jeki Chan kino sanoatidagi 56 yillik faoliyatidan so'ng Akademiya tomonidan sharaflilik mukofotini qo'lga kiritdi. 12 noyabrda jahonga mashhur aktyor va rejissyor Jeki Chan kino sanata qo'shgan hissasi uchun faxriy "Oskar" bilan mukofotlangani haqida xabar bergan edik.

Endi esa afsonaviy aktyor 2 karra Guinness World Records sovrindori bo'ldi. Guinness World Records'ning Facebook'dagi sahifasida aktyorni bunday rekord natijalar bilan qutlashdi.

U 1972 yildan buyon katta ekranlarda 100 martadan ortiq kaskadyor-aktyor sifatida namoyon bo'lgan, shuningdek o'z karerasi davomida ko'plab jarohatlar (burun sinishidan to bosh suyagining sinishigacha) olgan Jeki Chan "Eng ko'p tryuklarni o'zi bajaruvchi aktyor" nomiga ega bo'lgan.

Shuningdek Jeki "Bir kartinada eng ko'p vazifani bajargan inson" sifatida ham rekord natijani qayd etgan - "Xitoycha burj" filmida u ssenariyavis, rejissyor, aktyor, prodyuser, ijrochi direktor, operator, art-direktor, ishlab chiqarish guruhi rahbari, ovqatlanish muvofiqlashtiruvchisi, kaskadyor, tryuklar sahnalashtiruvchisi, mer, bastakor, rekvizit va vokalchi vazifalarini o'zi uddalagan. Jeki Changa topshirilgan mukofot uning mehnatsevarligi va istedodini yana bir bor tasdiqlaydi.

7. Eng uzoq vaqt pianinoda musiqa chalish bo'yicha Ginnes rekordi sohibi, o'n to'qqiz yoshli hind musiqachisi Mrityunjay SHarma (Mrityunjay Sharma) dunyodagi eng tez pianinochi nomini olishni rejalashtirmoqda, deb xabar beradi IANS axborot agentligi.

"Hozirgi rekord 765 klavishani bir daqiqada bosa olgan vengriyalik Bens Piterga (Bence Peter) tegishli. Men juda katta ko'rsatkichga erishishni maqsad qilmadim, ammo u shunday bo'lishi kerakki keyingi rekordni o'rnatish juda qiyin bo'lsin", - deydi musiqachi. Hindistonlik musiqachi 2015 yilda yoshi katta va tajribali raqibi polshalik

Romuald Koperskiyning rekordidan o'zib ketgan. Romuald 103 soat davomida musiqa ijro etgan bo'lsa, SHarmaning ko'rsatkichi 127 soatni tashkil etgan va ajoyib musiqiy marafonni amalga oshira olgan.

8. Baxt har doim hamroxingiz bo'lishini istaysizmi? Unda **Ziyo nur servis** o'quv markazi siz azizlarga ana shunday imkoniyatni taqdim etadi.

Ziyo nur servis o'quv markazida 15 xildan ortiq kurslar mavjud bo'lib, o'qituvchilarning har biri oliy malumotli bo'lishidan tashqari, o'z ishining ustasi va tajribali mutaxassislardir.

Ushbu o'quv markazi aynan siz istayotgan bilim va hunarlarni o'rgatadi. Ziyo nur servis o'quv markaziga kelgan har bir o'quvchi o'zi bilan bir va undan ortiq o'quvchi olib kelsa 5% li chegirmaga ega bo'ladi.

Agarda o'quvchi o'quv dasturini yaxshi o'zlashtirmasa qo'shimcha darslar mavjud. Faqatgina **Ziyo nur servis** o'quv markazida parda kursi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar uchun o'qish dasturi tugagandan so'ng, qo'shimcha tarzda 5 ta dars bepul tarzda o'tib beriladi. Barcha kurslar 2 soatdan bo'lib, o'quvchilarning ko'proq vaqti dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida amaliyotga yo'naltirilgan.

O'qishni to'liq bitirgan o'quvchilarga diplomlar taqdim etiladi. YUqorida aytib o'tganimizdek mazkur o'quv markazida **15 xildan ortiq kurslar mavjud**, jumladan:

Kompyuter kursi

Ushbu kurs 2 oyga mo'ljallangan bo'lib siz bu vaqt davomida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishni o'zlashtiribgina qolmay Office dasturlari: Word, Excel, Power Point, Outlook va global tarmoq internetni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Bundan tashqari grafik programmalarga fotoshop (1 oy) va corel draw (1 oy) vaqt ajratilgan bo'lib bu dasturlarda siz rasmlar bilan ishlash dizaynerlik chizmalar chizishni o'rganasiz.

Buxgalteriya kursi

Ishlarga talab kuchli bo'lgan buxgalteriya kursi 3 oylik dastur bo'lib siz 2 oy davomida 0 dan balansgacha bo'lgan hisob kitoblarni o'rganasiz va 3 oyda 1S programmasini amaliyoti bilan to'liq o'rganasiz.

Tikuvchilik kursi

Faqat bizning o'zbek qizlarimiz uchun yarashadigan tikuvchilik kursi 4 oylik dastur bo'lib andozalar olishdan boshlab bichish tikish sirlarigacha to'liq o'rgatiladi. Ushbu kursga qo'shimcha tarzda 4 oy modellashtirish kursi ham mavjud bo'lib, bu dasturda oqshom liboslari yaratish, turli xil modeldagi ko'ylaklar o'rgatiladi.

9. Suzish, aerobika va tennis bilan shug'ullanuvchi kishilar yurak-qon tomir kasalliklari tufayli kamroq vafot etishi aniqlandi. Bu boshqa sportni xush ko'ruvchi insonlar ko'rsatkichidan kelib chiqib malum qilingan. Sidney universiteti mutaxassislarining ilmiy tadqiqoti haqida EurekaAlert! nashri yozmoqda.

Fiziologlar 1994-2006 yillarda o'tkazilgan 11 tadqiqot malumotlarini tahlildan o'tkazishdi. Ularda hammasi bo'lib 80 mingdan ortiq inson qatnashgan.

Respondentlarning o'rtacha yoshi 52 yilni tashkil qilgan bo'lib, tashkilotchilar sportning malum bir turi bilan shug'ullanish hayot davomiyligiga tasir ko'rsatish darajasini aniqlashmoqchi bo'ldi.

Malum bo'lishicha, tennis bilan shug'ullanganlarda, yugurish yoki futbolni xush ko'ruvchilarga qaraganda yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etish xavfi 56 foizga kamroq ekan. Suzish va aerobika olamdan ko'z yumish ehtimolini tegishli ravishda 41 hamda 36 foizga pasaytiradi. Olimlarning umid qilishicha, kelajakdagi tadqiqotlar sport va jismoniy faollikka asoslangan sog'lomlashtirish dasturi samaradorligini oshirishda yordam beradi.

10. «Barselona»ning fransiyalik himoyachisi Samuel YUmtiti mashg'ulotlar vaqtida o'zini Messi uchun tek qotgan ustun rolida his qilishini tan oldi. U bu taqqoslashni jamoadoshi Lionel Messining mashg'ulot vaqtidagi harakatlari haqida gapira turib keltirgan.

«U to'p bilan aqlbovar qilmas darajadagi mohirlik bilan ishlaydi. Unda tug'ma talant bor, bu ham etmagandek u o'z ustida tinim bilmay ishlaydi. Mashg'ulotlar vaqtida u bajaradigan ishlarni anglashga ulgurmay qolaman. Bazida u to'p bilan harakatlangan holda barchani aldab o'tadi, biz xuddi jonsiz ustunlardek», — deya Umtitining so'zlarini keltirgan France Football.

Samul Umtiti «Barselona»ga yozgi transferlar vaqtida Fransiyaning «Lion» klubidan kelib qo'shilgandi.

INDEPENDENT WORK:

1. The main problems in the translation of Uzbek texts into English.
2. The adequacy as a criterion in translation of Uzbek texts into English.

CORE LITERATURE:

1. Barkhudarov L.S. Language and Translation. M. 1975.
2. Catford I.C. A Linguistic theory of translation. L.N/Y.
3. Shvaytser A.D. Translation and Linguistics. M.1973.
4. Levitskaya T.R, Fiterman A.M. The problems of translation on the material of the contemporary English language. M.1974.

ADDITIONAL LITERATURE:

1. Nida.E. Towards a science of translation. Leiden. 1964.
2. Roger. N. Bell. Translation and translating . Theory and practice. London, New York. 1995.
3. Salomov G. Tarjima nazariyasiga kirish. T. 1978.
4. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari. T. 1983.

ГЛОССАРИЙ

Атама	Термин	Terminology	Изоҳи
Адекват	Адекват	Adequate	“adequate” сўзидан олинга бўлиб, тўла мос, айнан ўша деган маъноларни англатади.
Академик дицилина	Академик дицилина	Academic discipline	академик фан
Аруз	Аруз	Aruz	туркий ғазал системаси
Аналитик билим	Аналитическая навика	Analysis	воқеа-ҳодисаларни аналитик таҳлилдан ўтказиш малакаси
Аслият тили(АТ)	Язык оригинала (ЯО)	Source language	ахборотни узатаётган тил
Ботиний маъно	Имплицидное значение	Implicit meaning	бадий матнда қўлланган шеърӣ санъатлар ва метафоралар ичига яширинган маъно
Воситачи тил (ВС)	Язык посредник (ЯП)	Meta-language	ахборотни бир тилдан қабул қилиб, иккинчи тилга узатаётган тил
Зоҳирӣ маъно	Эксплицитный значения	Explicit meaning	бадий матнни ўқиганда англашиладиган умумӣ маъно
Ички ёндашув	Внутренний подход	Personal view	Таржимага таржимон нигоҳи билан профессионал баҳо бериш

Лойихани назорат қилиш	Контролировать проект	Project controlling	Лойихани жадвал асосида назорат қилишни йўлга қўйиш
Прагматика	Прагматика	Pragmatics	тил коллективларининг бирор ахборотга нисбатан субъектив муносабати
Профессионал маҳорат	Профессиональная компетенция	Professional competence	Таржимоннинг йиллар давомида шаклланган қобилияти
Профессионал ғурур	Профессиональное достоинство	Professionalism	Таржимоннинг ўз касбидан фахрланиши, уни севиши
Процессуал хотира	Процессуальная память	Procession memory	Йиллар давомида йиғилган назарий маълумотлар, эслаб қолинган воқеалар
Рецептор	Рецептор	Recipient	ахборотни қабул қилувчи шахс
Репрезентатив хотира	Репрезентативная память	Representative memory	Элементар воқеа ва ходисаларни эслаб қолиш хотираси
Силлабо-тоник	Силлабо-тоническая	Syllabic-tonic	тоник- инглиз шеърий вазн системаси
Таржимачилик	Переводоведение	Translation studies	таржима қилиш жараёнлари, босқичлари, ютуқ ва нуксонлари, таржимонлар ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олади
Таржимашунослик	Язык перевода	Translation science	таржима назарияси ва амалиётини академик фан сифатида қабул қилиш босқичларидан тортиб, мазкур фанни илмий тадқиқ қилиш, фаннинг назарияси ва амалиёти муаммолари, фаннинг тадқиқотчи олимлари ва уларнинг концепцияларини ўз

			ичига олади
Таржима тили (ТТ)		Target language	ахборотни қабул қилаётган тил
Таржимон	Переводчик	Translator	форсча “тарзабон” сўзидан олинган бўлиб чиройли сўзловчи нотик киши деган маънони англатади.
Таржимоннинг сохта дўстлари	Ложные друзья переводчика	False friends of translators	аслият тилидаги сўзларнинг таржима тилида ҳам мазжуд бўлиши аммо бутунлай бошқа маънони билдириши.
Ташқи ёндошув	Взгляд из вне	External attitude	Таржимага нотаржимоннигоҳи билан баҳо бериш
Трансформация	Трансформация	Transformation	таржима амалиётида матнни маълум мақсад учун қайта қуриш
Турок	Турак	Turok	ўзбек шеърий вазн системаси
Фон билимлари	Фоновые знания	Knowledge	аслият тили, миллати, маънавиятига тегишли билимлар мажмуи
Эквивалент	Эквивалент	Equivalent	лотинча “equalence” сўзидан олинган бўлиб, ўхшаш деган маънони англатади

